

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX VA IJTIMOY FANLAR FAKULTETI


TARIX YO'NALISHI

UMUMIY TARIX KAFEDRASI

IV-BOSQICH TALABASI D. MAMAJONOVANING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Prezident J.Medison davrida AQSH



Ilmiy rahbar:

katta o'qituvchi D.Musaev

Andijon - 2012

Reja:

Kirish

- 1.** Jeyms Medison AQSHning to'rtinchi prezidenti
 - 2.** Jeyms Medison ma'muriyatining tashqi siyosati va AQSH – Angliya urishi
 - 3.** Ijtimoiy va iqtisodiy hayot
- Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikga erishgandan so'ng jamiyat ijtimoiy siyosiy hayotining barcha jabhalarida keng o'zgarishlar davri boshlandi. Bu jarayon intellektual sohada ham o'z aksini topib, eng asosiy gumanitar fan hisoblangan tarix fani oldiga hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb muommolarni ko'ndalang qilib qo'ydi. Chunki avvalgi yozilgan tarix sovet mafkurasiga singdirilgan bo'lib, tarixning ko'plab sahifalari qora dog' sifatida talqin qilinganligidir.

Mustaqillikga erishganimizdan so'ng xalqimizning yurti, til, madaniyati, qadryatlari tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. "O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi" – bu isbot talab bo'lmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi zarur.¹ Buni amalga oshirish jarayonida eng avvalo ma'naviyatni tiklash, tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay boshini baland ko'tarib yurish uchun insonga albatta tarixiy xotira kerakdir. Biron bir jamiyat ma'naviy imkoni-yatlarini odamlar ongida manaviy va axloqiy qadryatlarni rivojlantirmay hamda mustaxkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi.

Xalqning ma'naviy qadryatlari ma'naviy merosining ming yillar mobaynida sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan, uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tayziqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadryatlarini hamda o'ziga xos an'analarni saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tamonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash va davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi. Biz ma'naviy qadryatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy tabiiy jarayon deb hisoblaymiz. Tarix xotirasi xalq-ning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va xaqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni tabir joiz bo'lsa milliy iftixorni tiklash

o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi. Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda, buyuk ajdodlarimizni ishlari va jasoratlari taixiy hotiramizni jonlantirib yangi fuqorolik ongini shakillantirmoqda. Ah-loqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda.

Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql idrok bilan ma'naviy jasoratni diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblarni ko'p bo'lgan. Ularning nomlari jaxon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissalarini hozirgi kunda butun dunyoga ma'lumdir.²

Tarixiy tajriba an'analarning meros bo'lib o'tishi bularning barchasi yangidan yangi avlodlarni tarbiyalaydigan qadryatlarga aylanib qolmog'i lozim.

Xalqimizning etnik, madaniy va diniy sabr bardoshi ma'naviy uyg'o-nishning yana bir bitmas tuganmas manbaidir.

¹Каримов И.А. "Тарихий хотирасиз келажак йук" Т.; "Ўзбекистон" 1998. 3 - бет

² Каримов И.А "Ўзбекистон XXI аср бусагасида хавфсизликка тахдид, баркарорлик шартлари ва тараккиёт кафолатлари" Т.; "Ўзбекистон" 1997 140 бет

Ijtimoiy hayotimizni islox qilish va yangilash boshlanib ketganligi bois ma'naviy madaniyatning qudratli qatlamlari ochildi, ular xalq ruhiyatini va-tanparvarlik milliy iftixor butun dunyo uchun bag'rikenglik tamon o'zgartirib yubordi. Bu esa xalq ruhi qudratining birinchi belgisidir. O'zbek xalqining ruhining tiklanishi millat ma'naviy axloqiy ideallariing shakillanishi chuqur milliylik bilan umuminsoniylik bilan chambarchas bog'liq bo'lgan xodisadir. O'zbekistonda yashayotgan xalqlar o'ziga xoslikni yo'qotmagan holda umu-miy ruhiyatga xulq atvor falsafasiga ega bo'lmoqdalar. Bu esa mustaqillik yillari mobaynida millatlararo totuvlik manbai bo'lib kelgan yagona ma'naviy ruhiy negizni vujudga keltirdi.

Mustaqillik mamlakatimiz aholisining bilim doirasini kengaytirdi, tarix va hozirgi zamon voqealıklariga murojat qilish bizning ijtimoiy tafak-kurimizdan hayotni idrok etishning mavhum va aqidaparastlik qoliplarini yengib o'tishni mustaqil fikr yuritish va ro'y berayotgan hodisalarni baholab olish qobilyatini talab etdi.³ Ma'naviy tiklanish fikirlash tarzini mustaqillik

ruhi belgilaydigan yangi avlodga munosib ijodiy ziyolilarning paydo bo'lishi demakdir. "Bizning tushunishimizcha qotib qolgan eski aqidalardan voz kechish – o'z tarixiy o'tmishimizdan voz kechish degani emas, bu bir yoqlama va tor fikirlashdan voz kechish demakdir"⁴

Xalqimizning kelajagi eng avvalo uning o'ziga ma'naviy qudratiga va milliy ongning ijodiy kuchiga bog'liqdir. Moddiy farovonlikka tabiiy intilish millatning ma'naviy va aqliy o'sishi ehtiyojiga g'ov bo'lmasligi lozim. Ma'naviylik va ma'rifiylik xalqomozning ko'p asrlik tarixi davomida doimo uning eng kuchli o'ziga xos xususiyati bo'lib keldi.

Bizning an'anaviy qadryatlarimizni hozirgi demokratik jamiyatimizning qadiryatlari bilan uyg'unlashtirish kelajakda yanada ravnaq topishimizning jamiyatimiz jaxon hamjamiyatiga qo'shilishining garovidir.

Bugun biz tarixiy bir davrda xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib tinch osoyishta hayot kechirayotgan, avvalombor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib demokratik davlat va fuqorolik jamiyati qurish yo'lida ulkn imkoniyatlarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz. Biz o'z taqdirimizni o'z qo'limizga olib azaliy qadiryatlarga suyanib shu bilan birga taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan xolda, mana shunday oliyjanob intilishlar bilan yashayotganimiz xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz bu yo'lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgani bunday imkoniyatlarning barjasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz. Ana shu haqiqatni xalqimiz har tamonlama to'g'ri tushunib tanlagan taraqqiyot yo'limizni ongli ravishda qabul qilgani va qo'llab – quvvatlagani oldimizga qo'ygan maqsadlargaerishishning asosiy manbai va garovi ekanligini hayotning o'zi tasdiqlamoqda.

O'tgan davr mobaynida eski tuzumdan og'ir meros bo'lib qolgan ana shungay illatlarga el – yurtimizga nisbatan kamsitish va milliy manfaatlarimiz-

ni mensimaslik holatlariga barham berish ko'xna qadriyatlarimiz din – u diyonatlarimizni tiklash xayotimizda tarixiy adolatni qaror toptirish, ya'ni jamiyat qurish yo'lida xalqimizning ma'naviy yuksalishini o'z oldimizga qo'ygan oliyjanob maqsadlarga yetishda

³Каримов И.А “Узбекистон XXI аср бусагасида хавфсизликка тахдид, баркарорлик шартлари ва тараккиёт кафолатлари” Т.; “Узбекистон” 1997 150 бет

⁴ O'sha adabiyot 151 bet

hal qiluvchi mezon deb qarash va shu asosida ish olib boorish biz uchun doimo ustuvor vazifa bo'lib kelganini va bugun ham e'tiborimiz markazida turganini ta'kidlash lozim.⁵

Jamiyatimiz ma'naviyatini yuksaltirish bilan bog'liq jarayonlarning murakkab tamoni shundaki bugungi kunda boshimizdan kechirayotgan ijtimoiy – siyosiy taraqqiyot yo'lida uchraydigan juda ko'p muommolarni ham nazariy , ham amaliy jihatdan faqat o'z kuchimiz va salohiyatimizga tayanib hal etishga to'g'ri kelmoqda . Shu maqsadda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda amalgam oshirilayotgan keng ko'lamli ish-larning amaliy natijasi o'laroq adabiy san'at , madaniyat , matbuot sohasi mafkuraviy tazyiqdan bitunlay halos bo'lganini qayd etish joiz , har qanday ijod namunasi badiiy asar sinfiy bo'lishi va qandaydir g'oyaga , kommunistik mafkura manfaatlariga xizmat qilish kerak degan qarashlar bugun o'tmishga aylandi . Erkin ijod uchun milliy qadriyatlarimiz va boy ma'naviyatimizni xalqimiz tarixini , uning bugungi sarmazmun hayotini to'laqonli va xaqqoniy aks ettirish uchun zaruriy sharoit yaratildi .

Bugungi kunda o'z hayotini ana shunday ma'sulyatli sohaga bag'ishlab ko'plab iste'dod sohiblari yurtimizda yangi hayot , yangi jamiyatning ma'naviy asoslarini mustahkamlash , komil insonni tarbiyalash yo'lida munosib hissa qo'shib kelmoqda , ayniqsa hozirga vaqtda dunyoda kuchayib borayotgan turli ma'naviy taxdidlarning oldini olish “ommaviy madaniyatning” zararli ta'sir-laridan farzandlarimizning ong-u tafakkurini himoya qilishda ilm-u fan va madaniyat jamoatchiligi ijod ahlining o'rni va roli taboro ortib bormoqda .

Sovet mafkurasi xukmron bo'lgan zamonlarda ko'hna va boy tarixi-mizga bunday munosabatda bo'lish “tarixni ideallashtirish” deb tanqid qilinib,

Tayziq o'tkazib kelganini o'sha davrlarni boshidan kechirgan kommunistik mafkura jabrini tortgan yoshi ulug' adiblarimiz yaxshi eslaydilar .⁶ Ham-mamiz yaxshi tushunamiz adabiyotda tarixiy xaqiqatni tiklash bilan birga , xalqimiz adiblarimizdan bugungi kunimiz haqida zamonamiz qaxramonlari haqida yangi – yangi asarlar kutayotgani tabiiydir . Keyingi yillarda ana shunday ruh bilan yig'ilgan bir qancha she'riy asarlar paydo bo'layotgan-ligini mamnuniyat bilan ta'kidlash lozim .

Bugungi kunda xalqaro jamiyat safidan munosib va mustaxkam o'rin egallab borayotgan O'zbekistonimizga , uning tarixan qisqa davrda qo'lga kiritgan ulkan marralariga el – yurtimizning ma'naviy ildizlari , urf – odat va an'analarga , bir so'z bilan aytganda o'zbek xarakteri , o'zbek tabiatiga butun dunyo qiziqishi va xurmati taboro ortib bormoqda . Tabiiyki uzoq yaqindagi xorijiy do'st birodarlarimiz jaxon jamoatchiliga eng avvalo bizning zamonaviy adabiyotimiz va san'atimiz orqali o'zlarini qiziqtiradigan ana shunday savollarga javob topishni istaydi .

Buyuk svilizatsiya va madaniyat beshigi bo'lgan ko'hna va hayratomuz tarixni o'zida mujassam etgan vatanimizdan bebaho yodgorliklar asori – atiqalar haqida so'z yuritar ekanmiz shu zamonda yashayotgan barcha inson-lar ularni avvalo xalqimiz dahosining yorqin namunasi , ta'bir joiz bo'lsa uning yuksak ma'naviyatiga qo'yilgan muazzam haykallar deb qabul qiladi .

Yer yuzidagi barcha o'lmas obidalar insoniyat hayotini tubdan o'zgartirib yuborgan jamiyki ulug' kashfiyot va ixtirolar mumtoz san'at va adabiyot durdonalari , mardlik , qaxramonlik namunalari odamzotning aql tafakkuri , salohiyati va ma'naviy jasorati maxsulidir . Shuning uchun ham bu yorug' olamda eng buyuk jasorat nima degan savolga hech ikkilanmasdan “Eng buyuk jasorat bu – ma'naviy jasorat ” , deb javob bersak

⁵ Каримов И.А “ Юсак маънавият енгилмас куч” Т.: “ Узбекистон” 2008 12 бет

⁶ Каримов И.А “ Юсак маънавият енгилмас куч” Т, “ Узбекистон” 2008 137 бет

o'ylaymanki yanglishmagan bo'lamiz.⁷ Jaxon tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qalbida, yuragida ana shunday jasorat xissi nixoyatda kuchli bo'lgan insonlar har qanday murakkab vaziyatda ham adolat va haqiqat yo'lida o'zini ayamay el – yurt uchun qanday ibratli ishlarni amalgam oshirganini ko'rish mumkin. Aynan ana shunday odamlarning ma'naviy fazilatlari tufayli ezgu his – tuyg'ular, muqaddas va ulug' tushunchalar dunyoda hanuz barqaror bo'lib kelmoqda.

O'zbekistonning mustaqilligiga jaxondagi davlatlar va jamoatchiligi befarqlik bilan qaramay balki diqqat e'tibori bilan bo'lmoqdalar. Mamlakatimiz mustaqilligini davlat sifatida tan oldilar. O'zbekistonning mustaqil rivojlanishidagi o'tgan qisqa tarixiy davrda respublikani suveren davlat sifatida qaror toptirish yuzasidan ulkan ishlar amalgam oshirildi. Hozir O'zbekistonni 160 dan ortiq davlat tan olgan, dunyodagi 120 dan ortiq mamlakat bilan rasmiy diplomatik munosabatlari o'rnatilgan, Toshkentda 35 dan ortiq mamlakat o'z elchixonasini ochgan.⁸

Bugungi kunda O'zbekiston to'la huquqli asosda eng obro'li va nufuzli xalqaro tashkilotlar tarkibiga kirgan bo'lib, barcha qit'alardagi o'nlab mamlakatlar bilan do'stona aloqarni rivojlantirib bormoqda. Eng yirik bank va moliya organlari nodavlat va noxukumat tashkilotlari bilan yaqindan ham-korlik qilmoqda.

Biz tashqi aloqalarni xalqaro munosabatlarning turli yo'nalishlari bo'yicha muvaffaqiyatli rivojlantirishni xavfsizlik va barqarorlikning kafolati deb bilamiz. O'zbekiston dunyo uchun ochiq, biz ham dunyoning O'zbekistonga juda katta qiziqish bilan qarayotganligini his etmoqdamiz, bu esa O'zbekistonni barqaror rivojlanishi uchun eng yaxshi kafolatdir.

Jahon hamjamiyatining mustaqil O'zbekistonni tan olishi davlatimizning keng tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyati o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlari va imkoniyatlari tiklanishiga, o'zini boshqa xalqlar oilasidagi to'la xuquqli millat sifatida anglab yetishga yanada kuch baxsh etdi. Keng miqyosidagi xalqaro aloqalar jahon madaniyatini yanada chuqurroq bilish umuminsoniy qadriyatlardan baxramand bo'lish uchun qulay zamin yaratdi. Ayni mahalda o'zbek xalqining turli faoliyat sohalaridagi iste'dodi rivojlanishiga uning tadbirkorlik va kirishimlilik, bir necha chet tillarini tez o'rganib olish kabi noyob fazilatlari to'la to'kis ro'yobga chiqishiga imkon berdi. Ana shu aloqalar tufayli milliy mehmonnavozlik va sahovat an'analari yanada rivojlandi. Bunday aloqalarning kengayishi xaqiqiy ma'naviy va madaniy qadriyatlarni munosib baxolash imkonini beradi.

Bu holat mamlakatimizda Vatan tarixi bilan bir qatorda Jahon tarixini mukammal darajada bilish talab etadi. Natijada jahon tarixini o'rganish ham davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Chunki jahondagi davlatlar tarixini, urf – odatini, ma'naviyati hamda madaniyatini mukammal darajada bilishni talab etadi. Shuning uchun men ham bitiruv malakaviy ishim mavzusini jahon tarixini eng muhim sohalaridan hisoblangan – AQSH tarixining yorqin va o'chmas sahifalarini gavdalantirishga intildim.

Amerika qo'shma shtatlari mamlakatning rasmiy nomi, va poytaxti – Vashington hisoblanadi. Xududi 9363200 km.kub.⁹ Davlat tili ingliz, dini protestant, pul birligi AQSH dollari. Tabiiy geografik jihatdan Shimoliy Amerikada joylashgan. Iqlimi kontinental, o'simlik dunyosi juda boy, iqlim zonalarining o'zgarishiga qarab flora ham o'zgarib boradi. Davlat tuzilishi Federativ Respublika, uning tarkibiga 50 dan shtat kirgan.

Каримов И.А “Юксак маънавият енгилмас куч” Т.: “Ўзбекистон” 2008. 159 бет

Каримов И.А “Ўзбекистон XXI аср бусагасида хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари” Т.: “Ўзбекистон” 296 бет

⁹ Jahon mamlakatlari. Qisqacha ma'lumotnoma. T.: “O'zbekiston” 2006 yil 14 bet

Qonunchiligi ingliz umumiy huquqiga asoslangan . Davlat va hukumat boshlig'i Prezident . U 4 yil muddatga saylanadi . Qonun chiqaruvchi hokimyatni Senat va Vakillik palatasidan tashkil topgan ikki palatalik parlament Kongres amalgam oshi-radi , asosan ikkita siyosiy partiya mavjud bo'lib , Respublikachilar va Demokratlardan iboratdir .

AQSH ilg'or industrial va sanoatning yuqori difersifikatsiyasiga ega bo'lib , neft sanoati (dunyoda ikkinchi o'rinda) , metallurgiya (alyuminiy , qo'rgoshin , mis ishlab chiqarish bo'yicha eng yirik davlat hisoblanadi) , ma-shinasozlik , ayronoslik , kimyo electron , oziq – ovqat , yog'ochni qayta ishlash va boshqa sanoat sohalari keng rivojlangan .

Qulay iqlim sharoiti va unumdor erlarning mavjudligi bois qishloq ho'jaligini rivojlanishiga yaxshi omil yaratilgan . Chorvachilik mahsulotlari ham turlichadir (Dunyoda go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha birin-chi o'rinda) Asosiy qishloq ho'jalik mahsulotlari – makkajo'gori , soya , sargo (uchalasini yetishtirish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda) , bug'doy (uchun-chi o'rinda) , shakarqamish (ikkinchi o'rinda) , paxta (uchunchi o'rinda) , shu bilan birga kartoshka .

Baliq ovini tashkil etish bo'yicha ham jahonda ilg'or mamlakatlardan biri . Qishloq ho'jalik mahsulotlarning katta qismi boshqa mamlakatlarga eks-port qilinadi . Tashqi savdo hajmi bo'yicha jahondagi mamlakatlardan oldinda . Asosiy savdo hamkorlari g'arbiy Yevropa mamlakatlari , Kanada , Yaponiya .

Dastlab hindular istiqomat qilgan hozirgi AQSH hududiga yevropaliklar ilk bor XVI asrda kelishgan . Shimoliy Amerikani mustamlakalashtirish oqi-batida bu yerda XVIII asrga kelib 3 ta ta'sir zona tashkil topgan . Ispanlar Floridada , Texasda va Tinch okean sohillarida , Fransuzlar Buyuk ko'llar va Luizyanada , Inglizlar Atlantika sohillari bo'ylaridagi hududlarda o'rnashganlar . 1774 yilda 13 ta Britan mustamlakasi mustaqillik uchun kurash boshlab 1776 yil 4 iyulda AQSHning tashkil topishi bilan yakunlangan . J.Vashington va B.Franklin tamonidan tuzilgan demokratik davlatning asosiy tamoyillari bilan birga shtatlarning keng huquqlari hamda kuchli federal hokimyat tamoyillari chambarchas bog'lanib ketgan Konsititutsiya 1787 yil 17 sentabrda qabul qilingan .

XIX asrning birinchi yarmida AQSH hududlarining kengaytirilishi yangi yerlarni xarid qilish bilan birga (Fransuzlardan Luizyanani , Ispanlardan Flo-ridani) o'zga davlatlarning kaloniyalarini bosib olish vositasida amalgam oshirilgan . Yangi yerlarni kolonizatsiya qilish mahalliy hindularni bo'ysundirish yo'li bilan olib borilgan .

Shimoliy va janubiy shtatlar o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy qarama – qarshiliklar 1781 yilda Fideratsiyadan ajralib chiqishni e'lon qilgan 11 ta janu-biy shtatlar Konfederatsiyasining tashkil etilishiga olib kelgan .

Fuqorolar urushi boshida bir qator muvoffaqiyatlarni qo'lga kiritgan ja-nubliklar oxir oqibatda mag'lubiyatga uchrab , shimol g'alaba qozonib fiderat-siyani saqlab qoldi .

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Yevropa va boshqa qit'alardan ko'plab muxojirlar ko'chib kelishi oqibatida AQSH iqtisodiy jihatdan qudratli davlatga aylangan .

Markaziy Amerika , Karib xavzasi mamlakatlari va Tinch okeanida o'z ta'sir zonalarini faollik bilan kengaytirib brogan , AQSH uzoq vaqtgacha Yevropada bo'lib o'tayotgan voqealarga nisbatan betaraflikni saqlab kelgan .

Jeyms Medison AQSHning to'rtinchi prezidenti

Jemas Medison Amerika qirg'oqlariga dastlab 1652 yili qadam qo'ygan. Uning otasi Virginiyalik plantatorlardan biri bo'lib, ixtiyorida 600 akr yer uchaskasi mavjud edi. U qanday bo'lmasin o'ziga qarashli hududlarni ken-gaytirishga intilgan. Djems Medison AQSHning to'rtinchi prezidentini otasi hisoblangan, qaramog'idagi yerlarning 3/1 qismida qilchilikdan keng foyda-langan.

1651 yili 16 martda Jeyms Medison tug'ulgan. Uning oilasi Orenj graf-ligidagi eng yirik ikki oiladan biri hisoblangan. Medisonlar oilasi ingliz jentelmentlariga xos tarzda qaramog'idagi xususiy milkn mustaxkamlab qan-day bo'lmasin kengaytirishga harakat qilgan. Medisonning otasi qanday bo'l-masin o'zining avlo9dlariga va farzandlarini mukammal darajada ma'lumot olishga diqqat bilan ahamiyat bergan.

Shuning uchun kichik Medisonni 11 yoshidanoq xususiy maktabga ber-gan, u yerda grek va rim yozuvlarini asarlari o'rgatilar edi. Maktabni yakunlagandan so'ng, Atlantika bo'yidagi uch katta bo'lmagan Nyu – Jersi mustamlakasida joylashgan kollejda o'qishni davom ettirdi.

Bu yerda o'qish faoliyati davomida eng yetuk va ko'zga ko'ringan antik davr va zamonaviy faylasuf, yurist va tarixchilarning faoliyati bilan yaqindan tanishgan. O'qish davomida uning eng qiziqtirgan sohalaridan biri – “Davlat va huquq” predmeti bo'lgan. Xatto qiziqishi yuqori darajada bo'lganligi bois,

Kuniga faqat 3 soatgina dam olgan. Bunday kuchli darajadagi ilmiy mash-g'ulotlar uning salomatligiga ham zarar yetkazgan, og'ir kasallikga muhtalo bo'lgan. Shu paytgacha qadar Medison o'z kasalligini biron kimsaga ham ay-tmagan, shu bilan birga, o'sha davr shifokorlari uning kasalligini aniq aytib berisha olmagan.¹⁰

Bir necha yil o'tganidan so'ng, uning qaynotasi D.P.Eyn shunday deb yozadi: “Mustaqillik uchun bo'lgan urush davomida Medison harbiy xizmatdan kasalliga tufayli ozod qilinadi.”

1772 yili Medison Prinstonni tark etadi. Monpeleda 4 yil davomida istiqomat qiladi. Salomatligiga yaxshi bo'lmaganligi bois ko'proq tabiat zona-larida kun o'tkazishga majbur bo'lgan. Ammo o'z hayoti davomida u Anglikan cherkovini virginiya namunasini tasdiqlagan xolda qulchilik va bo'ysunish haqida fikr bildirgan. Gazetadagi xatlarida esa Medisonning mus-tamlakalardagi inglizlarga qarshi tashviqotlar yaqqol ko'rinardi. Proven-siyalardagi vatanparvarlik harakatlarida faol ishtirok etib, radikal yo'nalishga mansubligini namoyon etgan. O'nlab yozgan porlefletlarida kurashning maq-sadlari aniqlanib, muvaffaqiyatga erishishga yo'naltirilganligi namoyon bo'lgan.

1774 yili “Ozodlik o'g'lonlari” jamiyatini quvvatlab, “Bostondagi choy-ho'rlik”da qatnashgan, shu yili kuzda esa, o'z qarashlarni ifoda etgan holda Filadelfiyadagi I kontinental kongresda barcha provensiyalarni metropoliyadan keladigan tovarlarni qabul qilmaslikka chorlagan.

Shimoliy Amerika va Angliya o'rtasidagi xarbiy to'qnashuv natijalari Medisonni qanday bo'lmasin har qanday holatda ham havotirga solgan. Bunda xarbiy harakatlarda ishtirok etgan negr qullarning ozodligiga masalasi turardi. Chunki Medisonning o'zi ham plantator edi.

¹⁰ Согрин В.В Основатели США. Исторические портреты. Москва 1983 год стр 125

Shuning uchun qirollik askarlari va vatanparvarlar o'rtasida jang harakat-lari boshlanganidan so'ng 1775 yilning aprel oyida Virganiyada tezkorlik bi-lan xavfsizlik komiteti tashkil etilib, favqulotda militsiya birlashmalari tash-kil etishga kirishildi. 1775 yil oktabr oyida 24 yoshli Jeyms Medison Orenj grafligi militsiya podpalkovniki lavozimiga erishdi.¹¹ Bu sohada uning eng katta muvaffaqiyati quroldan o'q otish hisoblanib, xech kim xech qachon uning o'qidan qutila olmagan.

1775 yil aprel oyida Virginiya gubernatori lord Donleor Norfolk – Xemton rayonida qochib loyalist guruxlarga qo'shilib ketgan. Shundan so'ng mahalliy vatanparvarlar kontinental kongresga ahvolni ma'lum qilishadi. Kongres javobiga ko'ra, yangi hukumat tuzishni, uni eng avvalo biron virginiyalikka ixtiyoriy topshirilishi bayon qilinadi. Shundan so'ng, favqulodda konvent va saylov kunlari belgilanadi. Ikki deputatlik o'rniga Orenj grafligidan ikki shaxs: Jeyms Medison va eng obro'li xonododlardan xisoblangan Taylorlar oilasidan vakil ko'rsatilgan.

1776 yilning may oyida Vilyamsburgda ochilgan ta'sis konventida ular ikkalasi ham o'z o'rnini egallashgan.

Medisonning siyosiy faoliyatini boshlanishi juda serqirrali bo'lib, u dastlab shtatning ijroiya sovetiga a'zo etib saylangan, muddati tugaganidan so'ng qayta saylangan. Bu uning siyosiy faoliyatidan eng yuqori mansab bo'lib qolmay, balki o'tish davri vazifasini o'tagan deputatlik vakolati tugaganidan so'ng Vilyamsburgga qaytgan. Kontinental kongresda o'z deputatlik faoliyatini amalgam oshirish jarayonida T.Jeferson, R.G.Li, P.Genri va J.Meyson-lar bilan birgalikda qonun chiqaruvchi yig'ilish liderligi va gubernatorligini navbat bilan amalga oshirishgan. Mana shunday siyosiy faoliyatini rivojlanti-rishdagi o'ziga xos "kvartet" 1779 yili uni Kontinental kongresga Virginiya-ning vakili sifatida saylanishiga imkon bergan.

Medison Filodelfiyaga Kontinental kongres yig'ilishiga kelganda, o'zining shtatini har qanday haq – huquqlarini qat'iy himoya qilgan. Bundan tashqari o'z faoliyati davomida yosh deputat "Mening vatanim - Verginiya" formulasi asosida faoliyat ko'rsatgan. Konngres a'zolari hisoblangan Vashington va Jefersonlar janublik bu deputatni uzoq kuzatishgan. Ammo Medison Kongres ishiga ma'lum tanaffuslar bilan ishtirok etgan, chunki kassalligi bois ko'proquyda bo'lgan.

Kontinental kongresda shtatlar o'rtasidagi aloqalar, umumamerika va unga kirish masalasi ko'ndalang bo'lib turgan. 1777 yiligi "Konfederatsiya maqomi" loyihasi asosida, shtatlardagi hukumat va ularning suveriniteti masalasi ko'rilgan. Shu bilan bir qatorda mahalliy hokimyat bilan birgalikda, ulardagi yer masalasi katta munozaraga sabab bo'lgan.

Inqilob muvaffaqiyati amerikaliklarga Mustaqillik Dekloratsiyasi ifodalagan orzu – havaslari va g'oyalariga qonuniy shakl berish va o'z noroziliklarini shtat konsititutsiyalari vositasida qondirish imkoniyatini bergan. 1776 yilning 10 mayidayoq Kongres kaloniyalarga o'z saylovchilarining baxt – saodati va xavfsizligiga eng a'lo darajada javob beruvchi yangi hukumatlar shakillani-shini tavsiya etdi. Ayrim kaloniyalar bu ishni bajarib bo'lgan edi va Musta-qillik Dekloratsiyasi qabul qilinganidan so'ng bir yil o'tgach uchta shtatdan boshqa barcha shtatlar o'z konsititutsiyalarini barpo etishga muvaffaq bo'ldi.

Yangi konsititutsiyalar demokratik g'oyalarning ta'sirini aks ettirgan bo'lib, barcha kolonial tajribalarning va Angliya taomilining boy poydevoriga tayan-gani tufayli o'tmish bilan bog'lovchi rishtalarni keskin qirqmadi. Biroq har biri respublikachilik ruhi bilan

¹¹ Согрин В.В Основатели США . Исторические портреты . Москва 1983 год стр 128

sug'orilgan bo'lib, bu orzu uzoq muddat davomida ma'rifatparvarlik faylasuflari uchun asos bo'lgan.

Shu narsa ayonki shat konsititutsiyalarini tuzuvchilarning ilk maqsadi “daxlsiz xuquqlarni” muhofazalash edi. Aynan shu xuquqlarning buzulishi so-biq kaloniyalarni Britaniya bilan bog'lovchi aloqalarni uzishga chorlagan edi. Shu tariqa har bir konsititutsiya xuquqlar deklaratsiyasi yoki bil'lidan boshlanadi.

Boshqalar uchun namuna sifatida xizmat qilgan Virjiniya konsititutsiyasi tamoyillari deklaratsiyasini o'z ichida qamrab olgan edi. Shu jumladan xalq suveriniteti idora mansabdorlarini o'zgartirib turish (rotatsiya) erkin saylovlar va asosiy erkinliklar va asosiy erkinliklarning ro'yxati mo'tadil garov haqi va insonni jazolash sud maslahatchilari (jyuri) yordamida tez o'tkaziladigan sud muhokamasi, matbuot va inson erkinligi ko'pchilikning xukumatni isloh etish yoki o'zgartirish xuquqi kabi tushunchalar kiritilgan.

O'zga shtatlar erkinliklar ro'yhatini kengaytirib, nutq erkinligi, yig'inlar va iltimosnoma berish erkinligini ham kafolatlashgan. Ko'pchilik qurol olib yurish xuquqi, hibsga olishning qonuniyligini ko'rib chiqish uchun mahbusni sud mahkamasiga chaqirish xuquqi, turar joy daxlsizligi xuquqi va qonun nazdida barchaning teng muhofazaga egalik xuquqi kabi fasllar ham kiritilgan. Undan tashqari barcha konsititutsiyalar xukumatning bir – birini nazorat qiluvchi va vakolatini cheklovchi uch tarmoqli ijroiya qonun chiqarish va sud tuzulmasini yoqlab chiqishadi.

Pensilvaniya konsititutsiyasi eng radikal bo'lib, bu shtatda Filadelfiya hunarmandlari Shotland, Irland chegara ko'chginchilari va nemiszabon fermerlar nazoratini o'z qo'liga olgan edi. Mahalliy kongres soliq to'lovchi har bir erkak va uning o'g'illariga ovoz berishni ta'minlovchi va idora mansabdorlarini o'zgartirib turishni (har yeti yil mobaynida, hech kim to'rt yildan ortiq muddat davomida vakil sifatida xizmat qila olmasligi) hamda bir palatali qonun chiqarish tarmog'ini ta'sis etishni talab qiluvchi konsititutsiya-ni qabul qildi.¹²

Shtat konsititutsiyalari yaqindagina qabul etilgan mezonlarga nisbatan ayrim ko'zga tashlanuvchi cheklashlar kiritdi. Insonlarga daxlsiz xuquqlarni kafolatlash uchun ta'sis etilgan konsititutsiyalar har bir kishi uchun eng asosiy bo'lgan tabiiy xuquq ya'ni tenglikni muxofazalamagan. Pensilvaniya-dan janubga tamon joylashgan kaloniyalar o'z qullarini inson sifatidagi daxlsiz xuquqlardan mahrum etgan. Ayollar siyosiy xuquqlarga ega bo'l-magan. Birorta shtat umumiy saylov xuquqini ayollarga bermagan va xatto soliq to'lovchilarga ovoz berishni ruxsat etgan shtatlarda Pensilvaniyadan tashqari xususan, Delover, Shimoliy Koralina va Jorjiya shtatlarida xukumat idoralarida xizmat qilish uchun muayyan miqdordagi mulkka egalik qilish (ya'ni mulk senzi) talabi qo'yilgan edi.

Angliya bilan kurash kaloniyalar mavqeini o'zgartirishga katta ta'sir o'tkazdi. 1754 yilda mahalliy assambleyalar o'z avtanomiyalarining kichik ulishini hech bir tashkilotga xatto o'zlari saylagan taqdirda ham topshirishni eb ko'rmay it-tifoq tuzishning Olbani rejasini rad etishgan edi. Ammo inqilob tufayli o'zaro yordam bunday ittifoqning samaradorligini isbotladi va shaxsiy hukmronlikdan ayrilish hadigi ancha pasaydi.

1776 yili J.Medison “Konfederatsiya va abadiy ittifoq moddalari” ni ishlab chiqdi. Kontinental kongres bu moddalarni 1777 yilning noyabrida qabul qildi va ular 1781 yili kuchga kirdi. Biroq mazkur moddalar tamonidan joriy etilgan hukumat shakli qator kamchiliklarga molik edi.

¹² Согрин В.В Основатели США . Исторические портреты . М1983 стр 140

Milliy hukumatning extiyoj tugʻilganida taʼriflar oʻrnatish, tijoratni tartibga solish va soliqlar yigʻish borasidagi vakolati ancha zaif edi. Xalqaro aloqalar sohasida ham nazorat mustaqilligi yetishmasligi bois bir qator shtatlar xorijiy davlatlar bilan oʻzlari mustaqil muzakaralar olib borganlar. Toʻqqizta shtat oʻz armiyalarini shakillantirgan va qator shtatlarning oʻz harbiy dengiz qurolli kuchlari bor edi. Xilma – xil tanga pullarning muomilasi va shtat hamda davlat miqyosidagi qogʻoz pullarining chalkash xilma - xilligi mavjud boʻlib, barchasi tez surʼatlar bilan qiymatsizlanib borar edi.

Urushdan soʻng esa yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklar oʻzgartirishlar kiritishni taqozo etdi. Urushning tugashi ikki taraf armiyalarini taʼminlab turgan savdogarlar faoliyatiga jiddiy taʼsir koʻrsatdi va ular Britaniyaning savdo – sotiq tizimida ishtirok etishdan oluvchi imtiyozlarini yoʻqotdilar. Shtatlar oʻz tarif siyosatlarida Amerikaning oʻz mol mahsulotlariga afzallik berdi, biroq bu tariflar birmuncha xato boʻlib, kelishtirilgan siyosat oʻtkazish-ga qodir kuchliroq markaziy xokimyat oʻrnatishga talab oshdi.

Inqilob oqibatida vujudga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklardan fermerlar koʻp zarar koʻrgan. Qishloq hoʻjalik mahsulotlarining hayoti talabdan ustun keldi va oʻz mulklarini garovdan qaytarib olish imkoniyatidan mahrum etilmasligi va qarzlari evaziga hisobga olinishga yoʻl qoʻymaslik uchun kuchli choralarga muxtoj qarzdor fermerlar orasida hadik paydo boʻldi. Sud maxka-malarida qarz yuzasidan yoʻqotilgan ishlar toʻlib ketdi.

1786 yilning yoz oylarida qator shtatlarning xalq majlislari va norasmiy yigʻilishlari shtat maʼmuriyatlarida islohot oʻtkazishni talab etdi.

Inqilobdan soʻng qoʻshma shtatlar eski hal etilmagan gʻarbiy masalaga yaʼni yerlarni kengaytirish muommosi bilan bogʻliq boʻlgan yangi yerlarni oʻzlashtirish, moʻyna savdosi, hindular masalasi, koʻchkinchilar rayonlari va mahalliy xukumatlar mojarosi qaytadan avj ola boshlagan.

Amerikaning juda boy yerlariga mahliyo boʻlgan ilk koʻchkinchilar Apalechi togʻlaridan oshib oʻtib, uning ortidagi yerlarni oʻzlashtirishgan. 1775 yillarda suv yoʻllari uzra sochma va keng yoyilgan quriqlik rabotlarida oʻng-minglab koʻchmanchilar istiqomat etishgan. Sharqdagi siyosiy hokimyat mar-kazlaridan togʻ tizmalari va yuzlab kilometr lab masofa bilan ajratilgan muho-jirlar oʻz hukumatini taʼsis etdilar.

Dengiz sohillarida joylashgan shtatlardan kelgan koʻchkinchilar ichkari-dagi serunum daryo yoqasi vodiylari qalin oʻrmonlar va past preriyalarga zich toʻplangan. 1790 yilning oxirlariga kelganda Apalachi togʻlarining orti-dagi mintaqa aholisining soni 120 000 ortib ketgan.¹³

Urushdan avval qator koloniyalar Apalachi togʻlarining ortidagi yerlarga katta va koʻpinchalik bir – birlariga toʻqnash keluvchi talablarni qoʻygan. Mazkur talablardan quruq qolganlar nazdida yerlarga boy bu oʻlka adolatsiz ravishda taqsimlangan. Bular qatoriga kirgan Merimid shtati bir qaror kiritgan unga binoan, umumiy mulk hisoblanuvchi gʻarbiy yerlar kongres tamonidan ozod va mustaqil hisoblanuvchi shtatlar orasida taqsimlanishi lozim edi.

1780 yili Oʻz talablarini Qoʻshma shtatlarga oʻtkazish yoʻlini Nyu – York ochdi. 1784 yili eng katta talablardan birini qoʻygan Virjiniya shtati Ogoyo daryosidan shimolda joylashgan barcha yerlardan voz kechdi. Oʻzga shtatlar ham oʻz talablardan voz kechishga majbur boʻldilar va Ogoyo daryosidan shimolda va Allagen togʻlaridan gʻarbda joylashgan barcha yerlarni Kongres oʻz qoʻliga olish lozimligi ayon boʻldi. Million – million gektar yerlarga umumiy egalik millat va ittifoqning eng sezilarli dalili boʻlib milliy suve-rinitet

¹³ Новая и Новейшая истории Европы и Америки (1810 – 1986 г) М.:1988 стр 74

g'oyasiga muayyan mohiyat bag'ishladi. Ayni paytda bepayon bu hududlar o'z yechimini kutayotgan muommo edi.

Konfederatsiya moddalari bu masalaga yechim taklif etdi, unga binoan o'z – o'zini boshqarishning 1787 yilda Shimoliy Ordenansi (dekrat) orqali o'rnatilgan cheklangan tizimi shimoliy – g'arbiy hududning shakillanishini ta'min-ladi. Bu tuzumga binoan ular yahlit nohiya bo'lib, Kongres tayinlovchi guber-nator va sudyalari tamonidan boshqarilgan. Bu hudud aholisi ovoz berish yoshidagi 5000 ozod erkaklarga yetgach ikki palatali qonun chiqarish tar-moqqa aylanish va quyi palatani o'zi saylashi lozim edi. Qo'shimcha ravishda ovoz bermaydigan vakilni kongresga yuborishi ham mumkin edi.

Bu hududda beshtadan ortiq bo'lmagan va uchtdan kam bo'lmagan shtatlar shakillanishi lozim edi va ulardan qaysi birining aholisi 60 000 ta ozod kishilarga yetsa u asl shtatlar bilan barcha jihatlaridan teng maqomda ittifoqqa qo'shilishi lozim edi. Bu Ordonani fuqorolik huquqlari va erkinlik-larini kafolatladi, ta'lim – tarbiyani rag'batlantirdi va “mazkur hududlarda na qullar va na zo'raki qaramlik bo'lmas”ligini kafolatladi.

Yangi siyosat Amerika koloniyalari metropoliya manfaatlari uchun mav-judliga va siyosiy jihatdan tobe ijtimoiy jihatdan esa quyi ekanligi haqidagi asriy tushunchalarni rad etdi.¹⁴

Bu nazariya davlatni kengaytirishni bildirib, tenglik manfaatlari bilan imti-yoz sifatida emas, balki huquq tarzida taqdimlash tamoyiliga almashtirildi. Shimoliy –g'arbiy Ordonaning mazkur ma'rifatparvar qarashlari Amerika xalq siyosatining asoslarini shakillantirishga zamin yaratdi. J.Vashington ta'kid-laganidek, Parij sulhi va Konsitutsiya ishlab chiqarilishi mobaynidagi davrda ta'kidlaganidek shtatlar faqat “qumdan to'qilgan arqon” yordamida birlash-tirilgan edi. Potamak daryosida kema qatnovi borasidagi Merilend va Virjiniya shtatlar orasidagi baxslar 1786 yili Merileendning Annapolis shah-rida besh shtat vakillarining konfrensiyaga chorladi. Vakillardan biri A.Xamilton tijorat masalalari o'zga siyosiy va iqtisodiy masalalar bilan shu qadar uzviy bog'langanligi xamda o'rtadagi vaziyat shu qadar jiddiy tus olgani tufayli o'rtadagi baxslar mazkur vakolatsiz yig'in tamonidan hal etilishi amri mahol ekanligiga o'z hamkasblarini ishontira olgan.

Bu masalalar hal etilishi uchun barch shtatlar o'z vakillarini kelgusi yil bahorda Filodelfiyada o'tkaziladigan yig'inga tayinlanishlariga da'vat etdi. Kontinental kongres dastlab bunday shijoatli qadamdan g'azablangan, biroq Virjiniya shtati J.Vashingtonni vakil sifatida saylanganini bilgach, norozilik ancha pasaygan. Kuz va qish oylarida Roy Aylenddan boshqa o'zga barcha shtatlarda saylovlar o'tkazilgan.

1787 yilning may oyida Filodelfiyaning Shtatlar uyida o'tkazilgan Federal Konventga vakillar sifatida ko'zga ko'ringan arboblari to'plangan. Shtatlarning qonun chiqarish tarmoqlari kolonikal va shtat hukumatlarida, Kongres sud adliya va armiya sohalarida tajribali rahbarlarni yuborishdi. O'zining to'g'ri so'zligi va inqilob davrida ko'rsatgan harbiy rahbarlik iste'dodi tufayli mam-lakatning mashxur fuqorosi deb hisoblangan J.Vashington majlisni olib bo-ruvchi rais etib saylangan. Ancha faollar orasida Pensilvaniyalik ikki vakil ummumilliy hukumat zarurligini aniq ko'rib turgan gubernator Morri va davlat g'oyasi yo'lida betinim xizmat qilayotgan Jems Uilson ko'zga ko'ringan arboblari edi.

Pensilvaniya shtatida saylangan vakillar orasida xalq hizmati va ilmiy yutuqlar sohasidagi faoliyatning yuqori cho'qqisiga yaqinlashgan B.Frenslin ham bor edi.

¹⁴ Согрин В.В. Идеиная тегония в Амерканской ревалюции XVIII века . М.: 1980 стр 87

Virjiniya shtatidan esa shtat hukumatining yosh amaliyotchisi siyosat va tarix sohasida ko'zgako'ringan olim bir xamkasbining ta'biri bilan aytganda, sanoat va amaliyot ruhi ila munozaralarda har qanday masala yuzasida a'lo darajadagi xabardor inson – Jeyms Medison ham tashrif buyurgan edi. Ayni paytda Jeyms Medison ham AQSH Konsititutsiyasining otaxoni sifatida tan olingan edi.

Masachuseti shtati yosh va tajribali Rufus King va Elbirj Jerri yuborgan . Poyafzalchilikdan sudyalikka ko'tarilgan Rojer Sherman Konnektikut shtatining vakillarida biri edi . Nyu-Yorkdan A Xamilton kelgan edi .

Konvent ishida Fransiyaga elchi qilib yuborilgan T.Jeferson va Buyuk Britaniyaga elchi sifatida yuborilgan S.Adamslar qatnasha olmaganlar. Jami 55 ta vakil qatnashib, ularning orasida yoshlar ko'pchilikni tashkil etar edi. Konfrensiya vakillarining o'rtacha yashi 42 yosh edi. Uning ishtirokchilari faqat Konfrensiya moddalariga qo'shimchalar kiritish vakolatlarini olgan edilar, ammo keyinchalik J.Medison ta'kidlaganidek, vakillar "o'z o'lkalariga jasur ishonch ila" moddalarni bir chetga surib qo'yib hukumatning tamomila yangi shaklini barpo etishga kirishib ketdilar.¹⁵

Vakillar hokimyatning ikki turi ya'ni 13 ta yarim mustaqil shtatlar tamonidan amalgam sinab ko'rilgan mahalli nazorat va markaziy hokimyat qudratini bir-biriga kelishtirish asosiy masala ekanligini tan olishdi. Ular qabul qilgan tamoyilga binoan umumdavlat hokimiyatiga mansub vazifalar va qud-rat vakolatlari extiyotkorona ravishda aniqlanishi va ta'sis etilishi lozim bo'-lib, barcha o'zga vazifalar-u omillar shtatlarning vakolat doirasiga mansub, deb tushunilishi lozim edi.

Ammo markaziy hokimyat xaqiqiy kuchga ega bo'lish lozimligini tushun-gan ravishda vakillar o'zga vakolatlar qatori xukumatning pul zarb etish, savdo – sotiqni tartibga solish, urish e'lon qilish va tinchlik sulxi tuzish xuquqlariga ega bo'lish kerakligini umumiy tarzda tan olishgan.

Filodelfiyada yig'ilgan XVIII asr shtat arboblari siyosatida kuch – qudrat muvozanati haqidagi Montesklo nazariyasining tarafdorlari bo'lishgan. Bu tamoyil kaloniya ishlarini yuritish tajribasi bilan tasdiqlanib, Jon Lokk asar-laridan nazariy asos olgan edi. Provard natijalariga ko'ra, bir – biriga teng va muvofiqlashtirilgan uch tarmoqli hukumat ta'sis etish va yakdil e'tirof g'ala-ba qozondi.

Qonun chiqarish ijroiya va sud yuritish tarmoqlari shu qadar uyg'un muvofiqlashtirilishi lozim ediki, hech bir hukumat ustidan nazoratni bir qo'lda mujassamlashtira olmasligi lozim edi. Qonun chiqarish tarmog'i xuddi kalo niyalardagi qonun chiqarish tarmoqlari va Britaniya parlamenti kabi ikki pa-latadan tarkib topishi zarurligiga vakillar rozi bo'ldilar.

Bu jihatdan yig'in ishtirokchilari orasida yakdillik, xamfikirlik mavjud edi, ammo bu tamoyilni amala oshirish borasida keskin qarama – qarshiliklar kelib chiqqan. Masalan, kichik shtat Nyu-Jersi vakillari umumdavlat xukumatida Konfederatsiya moddalariga binoan bo'lganidek shtatga emas uning aholi soniga qarab vakolat berish, ularning nufuzini pasaytirishi muqarrar bo'lgani tufayli o'zgarishlarni rad etdilar. Virjiniya kabi katta shtatlarning vakillari munosib vakolatni yoqlab chiqishgan. Bunday munozaralar ortidan ko'rinmas tortushuvlarga aylanish xavfini tug'dirganida R.Sherman maqbul taklif kirit-gan ya'ni kongresning bir qismi, Vakillar palatasi shtatlar aholisining soniga qarab vakillar saylanishi kerak, o'zga qismi esa Senatda teng vakolatga ega bo'lishi lozim edi. Shu tariqa katta shtatlarning kichik shtatlarga nisbatan teng saflanishi hal etilgan. Ammo

¹⁵ Согрин В.В. Идеиная тегония в Амерканской ревалюции XVIII века . М.: 1980 стр 144

deyarli har bir yangi masala yangi muom-molarni yuzaga keltirib, ular faqat murosas-yu madora asosidagina hal etilishi lozim edi. Shu tariqa katta shtatlarning kichik shtatlarga nisbatan teng saflanishi hal etilgan. Ammo deyarli har bir yangi masala yangi muommolarni yuzaga keltirib, ular faqat murosas-yu madora asosidagina hal etilishi lozim edi.

Sheys isyonidan xamon tashvishlanayotgan Sharman va Elbrin Jerri kabi muayyan vakillar o'z – o'zini boshqarish uchun olomon yetarli donolikka ega emasligidan hadiksiragani tufayli federal hukumatning bironta tarmog'i ham bevosita ravishda xalq tamonidan saylanishini istashmagan. O'zga vakillar esa umumdavlat hukumatga iloji boricha keng xalq asosi berilishi kerak, deb hisoblangan. Ayrim vakillar taboro kengayib borayotgan g'arbga shtat maqo-mini olish imkoniyati berilmasligini ro'kaj qilishgan. O'zgalar esa 1787 yili Shimoliy- g'arbiy Ordanans ta'sis etgan tenglik tamoyilini yoqlab chiqishgan.

Qog'oz pul zarb etish shartnoma bo'yicha majburiyatlarni tartiblashtiruvchi qonunlar kabi milliy iqtisodiy masalalari yoki siyosiy faoliyatdan chetlash-tirilgan ayollar roli borasida jiddiy ixtiloflar paydo bo'lmadi. Biroq tarmoq-larning iqtisodiy manfaatlarini muvozanatlashtirish borasida extiyoj mavjud edi. Shular qatori bosh ijroiya arbobining vakolat doirasi, xizmat doirasi va qaytariqa tanlanishi yuzasidan dalillar keltirish, sudyalarning qancha muddatga tayinlashga, ta'luqli muommolarni hal etish va ta'sis etilishi lozim bo'lgan sud mahkamalari turgan.

Filadilfiyaning jazirama yoz oylari o'z ishini to'xtatmagan Konvent shu paytgacha o'ylab chiqilgan eng murakkab hukumat aniq belgilangan va cheklangan doiradagi oily hokimiyatni shakillantirish haqidagi qisqa hujjatning loyihasini ishlab chiqishdi.

Quadrat vakolatlarini taqdim etish borasida Konvent soliqlar to'plash, qarz olish, bir xildagi boj soliqlarini ta'sis etish va soliqlarni belgilash, pul zarb etish, og'irlik va uzunlik o'lchov birliklarini bel-gilash, potent va nusxa olish xuquqlarini berish, pochta idoralarini barpo etish va pochta yo'llarini tashkil etish borasida federal hukumatga to'liq vakolatlar berildi.

Umumdavlat xukumat va armiya harbiy dengiz qurolli kuchlarini barpo etish va saqlash, xamda shtatlararo tijoratni tartibga solish qudratiga ham ega bo'ldi. Unga hind qabilalari bilan aloqada bo'lish, xorijiy siyosat va urushni boshqarish vakolati ham berildi. Xorijiy-larga fuqorolik maqomini berish va davlat qaromog'idagi yerlarni nazorat etish borasida qonunlar chiqarish imko-niyati berilib, avval barpo etilgan shtatlar bilan barobar xuquqlarga molik yangi shtatlar ta'sis etish ham ruxsat etildi.

Mazkur aniq belgilangan kuch- qudratini ijro etish uchun barcha zaruriy va tegishli qarorlar chiqarish vako-lati federal hukumatga kelgusi avlodlar extiyojlariga javob berish va siyosiy tashkilotni beqiyos kengaytirish qobilyatini ado etdi.

Hukumat vakolatlarining ayri etilishi tamoyili aksariyat shtat konsitut-siyalarida adolatli sud yuritish sohasida ilgari ham mavjud bo'lib, ularning to'g'riligini tasdiqladi. Mutonosib ravishda Konvent hukumat tizimining har biri o'zgasining cheklovchi ayri qonun chiqarish ijroiya va sud yuritish tar-moqlarini ta'sis etdi.¹⁶

Shu tariqa Kongres loyihalari President tamonidan tasdiqlanmaguncha qo-nun kuchini ololmas edi. Prezident esa eng muhim mansablarga tayinlovchi nomzodlarni va barcha bitimlarni Senat tasdig'idan o'tkazib olishi lozim edi. O'z navbatida Prezident ham Kongres tamonidan impachmentga uchrab lavozimidan chetlashtirilishi mumkin edi.

¹⁶ Заславский Д.О. Очерки истории Северо Американских Соединенных штатов XVIII – XIX веках. М.: 1931 стр 75

Sud tarmog'i federal qonunlar va Konsititutsiyaga binoan ko'tariluvchi barcha ishlar yuzasidan muhokama o'tkazishga majbur etilib, aslida sudlarga ham asosiy, ham targ'ibot qonunlarini talqin etish va kafolati berildi. Ammo Prezident tamonidan tayinlanuvchi va Senat tasdig'idan o'tuvchi sud tarmo-g'ining a'zolari ham Kongres tamonidan impachmentga tortilishi lozim edi.

Konsititutsiyani o'ylamay – netmay zudlik bilan o'zgartirishdan muhofaza-lash niyatida V – moddada takidlaganidek, Konsititutsiyaga o'zgartirish-u qo'shimchalar kiritish uchun Kongresning ikkala palatasining uchdan ikki qismi ovozi bilan yoxud Konvent yig'inida barcha shtatlarning uchdan ikki qismi bilan taklif etilishi lozim edi. Takliflar Kongres tanlaganiga muvofiq quyidagi ikki usuldan biri yordamida tasdiqlanishi majburiy etildi. Yoki shtatlarning to'rtidan uch qismi qonun chiqaruvchi tarmoqlari orqali yoxud shtatlarning to'rtidan uch qismini yig'ini orqali amalgam oshirishlari mumkin edi. Konvent eng muhim muommoga ro'baro keldi. Yangi hukumatga beri-luvchi kuch – qudrat qay tariqa hayotga tadbiiq etilishi lozim? Konfrensiya moddalariga binoan ham umumdavlat hukumatga qog'ozda sezilarli kuch – qudrat berilgan edi, biroq amalda esa shtatlar uchun nazar pisand qilmagan-ligi bois uning vakolati yo'qqa chiqarildi. Yangi hukumatni ham shunday taqdirdan nima saqlab qolishi mumkin edi? Natijada aksariyat vakillar yagona javobga keldilar – kuch ishlatish. Biroq shtatlarga nisbatan kuch ishlatish ittifoqning vayron etishning muqarrarligi tez orada nomoyon bo'ldi.¹⁷

Hukumat shtatlarga qarshi emas ularning hududlardagi xalqqa nisbatan ish yuritish va mamlakatda yashovchi har bir inson uchun va uning ustidan qonun chiqarishi lozimligi qaror qilindi.

Konsititutsiyaning qasoskor tamoyili sifatida Konvent ikkita qisqa lekin o'ta muhim bayonet qabul qildi: “Kongres qo'shma shtatlar hukumatiga mazkur Konsititutsiyaga binoan in'om etilgan qudrat va vakolatlarni, ijro etish uchun lozim va taluqli bo'ladigan barcha qonunlarni chiqarish kuchiga molik bo'ladi.” (1- modda 7-fasl)

Mazkur Konsititutsiya va undan kelib chiqib qo'shma shtatlarning yaratuv-chi qonunlari hamda qo'shma shtatlar vakolati doirasida qabul qilingan yoxud qabul qilinuvchi barcha bitimlar o'lkaning oily qonuniga aylanadi va shunga binoan har bir shtatlarning sudyalari har qanday shtatning Konsititutsiyasi yoki qonunlaridagi har bir bandni qaysi biridan qat'iy nazar toamiliga bog'-lashadi. (VI- modda)

Shu tariqa qo'shma shtatlarning qonunlari o'z sudlari va sud ijrochilari orqali hamda shtat sudlarida shtat sudyalari va shtat qonunchilik tizimi hodimlari orqali o'z davlat sud mahkamalarida hayotga tadbiiq etilishi mum-kin edi.

Konsititutsiyani barpo etganlarni harakatga keltirgan sabablari haqidagi baxslar hozirga kungacha davom etib kelmoqda. 1913 yili Charlz Byord Kon-sititutsiyaning iqtisodiy talqinida keltirgan dalillarga binoan Asoskor otaxonlar qudratli va vakolatli umumdavlat hukumati o'rnata oladigan barqarorlikdan huzur topuvchi iqtisodiy imtiyozlarga erishishni qo'llab – quvvatlashgan, chunki ularning qiymati qadirsizlanayotgan hukumat qimmatbaho qog'ozlari ko'p to'planib qolgan edi. Biroq Konsititutsiyaning asosiy ijodkori Jeyms Medison bironta zayomga ega bo'lmagan holatda, Konsititutsiyaga qarshi tur-gan ayrim muholiflar qo'lida juda ko'p zayomlar va qimmatbaho qog'ozlar mavjud edi.

Iqtisodiy manfaatlar baxs tortishuvlar jarayoniga albatta ta'sir o'tkazgan, biroq ayni shu maqomga shtat mintaqaviy va idealogik manfaatlar ham molik bo'lgan. Konsititutsiya bunyodkorlarining idealizmi ham o'z ta'sirini o'tkaz-gan, ularning ta'siri ma'rifaatparvarlik

¹⁷ Заславский Д.О. Очерки истории Северо Американских Соединенных штатов XVIII – XIX веках. М.: 1931 стр 81

g'oyalarini tarafdori bo'lishda edi. Asoskor o'toxonlar shunday xukumat ixtiro etishdiki, ularning etiqodiga ko'ra u shaxs erkinligi va jamiyat barhayotligini ta'minlashi muqarrar edi.

1787 yilning 17 sentabrida 16 xafta mobaynidagi o'ychan fikr va mulohazalar natijasida yuzaga kelgan Konsititutsiya majlisda qatnashayotgan 42 vakilning 39 tasi tamonidan imzolangan. Konvent o'z ishini tugatgach, a'zolari majlisini shaxar tavernasiga ko'chirib birgalikda tamaddi qilishdi. Biroq yanada mukammalroq ittifoq yo'lidagi hal etuvchi kurash hali oldinda edi. Bu hujjat kuchga kirishi uchun hali xalq tamonidan oshkora saylangan shtat konventlarining roziligi mavhum edi.

Konvent qaroriga binoan 13 ta shtatning to'qqiztasini konventlari tasdiqlagach, Konsititutsiya kuchga kirishi kerak edi. 1788 yilning iyunida talab etilgan 9 ta shtat Konsititutsiyani tasdiqladi, ammo Virjiniya va Nyu-York o'z tasdiqlarini bermadilar. Ushbu ikki shtatning roziligisiz Konsititut-siya hech qachon obro'li maqomga erisha olmasligini aksariyati his etdi. Ko'plarga esa bu hujjat havf – hatarga to'la bo'lib ko'ringan, u ta'sis etuvchi kuchli markaziy hukumat, ular zulm o'tkazmasmikin va og'ir soliqlar domiga g'arq etib, urush qirg'inlarga muftalo etmasmikan, degan savol barchaning dilida bor edi. Bunday savollarga turli-tuman yondashuvlar ikkita partiyaning shakillanishiga olib keldi. Ular : Kuchli markaziy hukumat tarafdori bo'lgan Federalistlar va ayrim shtatlarning erkin birlashmasini afzal ko'rgan – Antifederalistlar edi. Ikkala tarafning ham ehtirosli dalillari matbuot, qonun chiqaruvchi tarmoqlar va shtat konventlari orqali oshkor etilgan.

Konsititutsiyaning biz Qo'shma shtatlar xalqi degan debocha iborasiga norozilik bildirish orqali Virjiniyalik Antifederalistlar taklif etilayotgan yangi hukumatga hujum qilishdi. Vakillar fikricha Konsititutsiyada shtatlarning nomini atamaslik tufayli mazkur shtatlar o'z huquqlari yoki kuch – qudrat va-kolatlarini saqlab qola olmas edi. Virjiniya Antifederalistlari markaziy hokim-yatga vakolat berishdan cho'chigan mamlakat ichkarisidagi fermerlar nomidan so'zlovchi asosiy notiqqa aylangan Panrik Henri tamonidan boshqarilar edi. Ikkilanib turgan vakillar Virjiniya Konventi huquqlar bitimini tavsiya etgan taklif tufayli ishontirildi va Antifederalistlar Federalistlar bilan birlashib 25 iyun kuni Konsititutsiyani tasdiqlashgan imzo chekdilar.

Nyu – Yorkda A.Xamilton, Jon Jey va Jemas Medison “Federalist Risola-lari” nomi bilan mashxur risolalar silsilasida Konsititutsiyani tasdiqlashga da'vat etishgan Nyu – York gazetalarida chop etilgan mazkur maqolalar bir – biridan ayri va bir – biridan cheklovchi va muvozanatlovchi ijroiya qonun chiqarish va sud yuritish tarmoqlariga molik markaziy federal hukumat borasida yangicha mumtoz dalil bo'ldi. “Federalist risolalari” Nyu – York vakillariga o'tkazgan ta'sir natijasida 26 iyul kuni Konsititutsiya tasdiqlandi.

Kuchli markaziy hokimyatga qarshi qarashlar Konsititutsiyaga qarshi chiqqanlarning yagona tashvishi edi. Shaxs erkinliklari va huquqlaridan cho'chish esa ko'plarni bir hilda tashvishga solar edi. Virjiniyaning 1776 yilgi huquqlar deklaratsiyasining muallifi Virjiniyalik J.Medison Konsititutsiya shaxs erkinliklari va huquqlarini qayd etilmagani bois yakuniy hujjatni imzolashdan bosh tortgan, Konsititutsion konventning uchta vakilidan biri edi. Patrik Xenri bilan birgalikda u Konsititutsiyaning Virjiniya tamonidan tasdiqlanishiga keskin qarshilik kompaniyasini uyushtirgan.

Beshta shtat va shu jumladan Masachusetda mazkur qo'shimchalar darhol kiritilishi sharti bilan Konsititutsiyani tasdiqladi.

1789 yilning sentabrida birinchi Kongres Nyu -York shaxrida to'planganida shaxs huquqlarini himoyalovchi qo'shimchalar kiritishga da'vatlar deyarli yakdil tus oldi. Kongres mazkur 12 ta qo'shimchani tezda qabul qildi. 1791 yilning dekabrda 10 ta

qo'shimchani Konsitutsiyaning tarkibiy qismiga ay-lantirish uchun yetarli darajada shtatlar tasdiqlashdi. Birgalikda ular Huquqlar Bilim sifatida tarixga kirgan. Ular inom rtuvchi imtiyozlari orasida quyidagi xavf bor edi : nutq, matbuot, diniy e'tiqod erkinluga hamda tenglikparvar yig'i-lishlar o'tkazish, norozilik bildirish va o'zgarishlar talab etish huquqi (birinchi qo'shimcha), sababsiz tintuv o'tkazish, mulkni musodara etish va hibsga olish-dan himoyalash (to'rtinchi qo'shimcha), barcha jinoyi ishlar yuzasidan qonun-ga mutonosib, sud jarayoni o'tkazish (beshinchi qo'shimcha), adolatli va tez-kor sud mahkamasiga egalik huquqi (oltinchi qo'shimcha), befaxm va g'ayri-odatiy jazo qo'llanishidan himoyalash (sakkizinchi qo'shimcha) va Konsitut-siyada belgilanmagan qo'shimcha huquqlarga odamlarning ega bo'lishini ta'-minlash (to'qqizinchi qo'shimcha)

Xuquqlar Bilim qabul qilingandan davrdan beri konsitutsiyaga atigi 16 qo'shimcha kiritilgan . Ketma-ket qabul qilingan qaror qo'shimchalar feadal xukumatning tuzilishi va faoliyatini qayta ko'rib chiqqaniga qaramay ularning aksaryati Xuquqlar Bilmi o'rnatgan prezidentga ergashib shaxs xuquqlari va erkinliklarini yanada kengaytirgan .

Jeyms Medison ma'muriyatining tashqi siyosati va AQSH – Angliya urishi

Bu davrda AQSH tashqi siyosatida bir qancha muammolar mavjud bo'lib , axvolni yaxshilash uchun qonunlar qayta tadbiiq etilmay , biron bir ish qilishni imkonini yo'q edi . Armiya ham kichkinagina bo'lib xarbiy dengiz qurolli kuchlarining faoliyati umuman to'xtatilgan edi . Kongress tezkorlik bilan Davlat va g'azna departamenti (vazirlik) larini barpo etib , mas'ul shaxslarni unga rahbar etib tayinlagan . Ayni paytda Bosh xakam va beshta yordamchi sudyalardan tarkib topgan Oliy Sud hamda uchta okrug sudlari va 13 noxiya sudlarini tavsiya etish orqali Kongress federal tarmog'ini ham tavsiya etgan shuningdek Mudofa vaziri va Adliya vaziri ham tayinlangan .

Prezident fikr mulohazalari qimmatli bo'lgan arboblardan bilan maslaxatlashib olganidan keyingina qaror qilishni afzal ko'rganligi bois Kongress yaratishga qodir bo'lgan barcha dapartamentlarining paxbarlaridan tarkib topgan Amerika prezidenting kabineti vujudga keldi .

Shu bilan bir qatorda ichki hayotda mamlakat yanada o'sib Yevropadan keluvchi muhojirlar soni ortib bordi . Amerikaliklar g'arb tomon siljishda , Yangi Amerikaliklar va Pensilvaniyaliklar Ohayo tomon virgijyaliklar va koralinaliklar Kentukki va Tekenssal tomon , yaxshigina fermalarni arzimasi narxga xarid qilishar edi . Nyu-York , Virjiniya, Pensilvaniya , tez fursatda bug'doy yetishtiruvchi ulkan dalalarga aylandi .

Ko'p anjomlar hamon uyda ishlab chiqarilishiga qaramay sanoatlashtirish Amerika uzra qanot yozmoqda edi . Masachusebs va Roy Aylend to'qimachi-lik sanoatining poydevorini yaratdi . Konnektikut tunikadan yasalgan anjomlar va soatlar chiqara boshladi .

Nyu – York, Nyu – Jersi va Pensilvaniya qog'oz, shisha va temir ishlab chiqardi, kemasozlik shu darajada rivojlandiki, dengizlarda qo'shma shtatlar Britaniyadan so'ng ikkinchi o'ringa ko'tarilgan. 1790 yillardanoq Amerika kemalari mo'yna sotish va shu yerga choy, zirovorlar va ipak olib kelish uchun Xitoygacha ytib bordi.

Mamlakat taraqqiyoti uchun prezident raxbarligidagi milliy hukumat shakl-lanib, ilgari Britaniya va Ispaniya qo'l ostida bo'lgan territoriyalarni o'zlash-tirish uchun siyosiy

yo'nalishlar ishlab chiqildi. Shimoily - g'arbiy siljish chegarasini barqarorlashtirdi va uchta yangi shtatning tan olinishini nazorat etdi. 1791 yil Vermont, 1792 yili Kentziki va 1796 yili Tenessi shtatlari tan olindi.¹⁸

AQSH tarixida federalistlar va antifederalistlar orasida yuzaga kelgan nizo Amerika tarixida chuqur iz qoldirgan, chunki A.Xamilton boshchiligidagi Federalistlar dengiz portlarining shahar savdo-sotiq manfaatlarini ifodalagan, T.Jeferson boshchiligidagi Antifederalistlar esa qishloq ho'jaligi va janubiy mintaqa nomidan so'z yuritishni edilar. Ikki yo'nalish orasidagi nizo markaziy hukumatning shtatlar hokimiyatiga nisbatan kuch-qudratiga ta'luqli bo'lib, Federalistlar birinchisini yoqlaganlar, Antifederalistlar esa shtatlarning xuquqlarini himoya qilgan. Xamilton tijorat va sanoat manfaatlarini yo'lida ish yurituvchi kuchli markaziy hukumat barpo etishga urindi. U ijtimoiy xayotga samaradorlik, tartib intizom va tashkilotchilik maylini kiritdi, xalq ishonchining mutanosib madadi borasida Vakillar palatasi davlat etgan rejaga javoban u faqat davlat iqtisodiy tamoyilini emas, balki samarali hukumatni ro'yobga chiqarishni targ'ib etdi va unga madad berdi. Sanoat rivoji, tijoriy faoliyat va hukumat hatti-harakatlariga Amerika ahli ishonishi hamda bu masalalar xalqning ham to'liq ishonchi va madadiga erishmogi lozimligini takidlagan. Davlat qarzini pasaytirish yoki uni faqat qisman to'lashni istaganlar ko'p bo'ldi, biroq Xamilton bekami ko'st to'lovlar hamda inqilob davrida shtatlar olgan qarzlarni federal hukumat o'z zimmasiga olish rejasi tarafdori bo'ldi.

Shuningdek, Qo'shma shtatlarning bankiga mamlakatning turli burchaklarida o'z tarmoqlarini ta'sis etish xuquqi ham Xamiltondan meros bo'lib qolgan. U davlat pul zarb etish korxonasiga homiylik qildi va taraflar foydasiga "chaqaloq sanoat" dalilini keltirgan ya'ni yangi paydo bo'layotgan firmalarni vaqtincha muhofaza qilish, raqobatbardosh milliy sanoat sohalari-ning rivojlanishini tezlashtirishga ko'maklashdi. Mazkur choralar firmaning ta'sis sarmoyasiga federal hukumatning kredit ajratishi va u muhtoj bo'lgan barcha daromadlarni berish, tijorat va sanoatni rag'batlantirdi, hamda milliy hokimiyat orqasida qat'iy turgan biznesmenlarning zabardast tabaqasini vujudga keltirdi.

AQSH ma'muriyatining yana bir a'zosi T.Jeferson esa markazlashtirilgan agrar respublikani yoqlab chiqdi. Xorijiy davlatlar bilan aloqalarda u kuchli markaziy hukumatning ahamiyatini tan oldi, lekin o'zga sohalarda uning kuchli bo'lishini istamadi.

AQSH ichki hayotida ma'lum vazifalarni hal etishga harakat qilish bilan bir qatorda tashqi siyosat borasida horijiy aloqalarni nazardan chetda qoldirmadi, chunki Vashington vasiyatiga ko'ra, u o'tkazgan horijiy siyosatning tamal toshlari tinchlikni saqlash o'lkaga jarohatlardan qayta tiklanish uchun vaqt berish va davlat integratsiyasining asta sekin oyoqqa turishiga fursat berishdan iborat edi.

Yevropada bo'layotgan siyosiy voqealar esa bu maqsadlarga xavf tug'dirardi. Ko'p Amerikaliklar Fransiya inqilobini chuqur qiziqish bilan kuzatishar edi. 1793 yilining aprelida yetib kelgan xabarlar bu majoroni Amerika siyosatining muommasiga aylandi. Fransiya, Buyuk Britaniya va Ispaniyaga qarshi urush e'lon qilindi va Fuqoro nomi bilan ma'lum Fransiyaning yangi elchisi Tdmunt Charlz Jenet Qo'shma shtatlarga etib keldi.¹⁹

1793 yilning yanvarida Fransiya qiroli Lui XVI qatl etilgach, Britaniya, Ispaniya va Gollandiya Fransiya bilan urushga tortildi. 1778 yilgi Fransiya – Amerika ittifoq bitimiga ko'ra Qo'shma shtatlar va Fransiya doimiy ittifoq-dosh hisoblanar edi va Amerika Fransiya Vest-Indiyani himoyalashga yordam berishga majbur edi. Ammo harbiy va

¹⁸ Нарочкицкий В.Е Новая история 1640 – 1870 годы Москва 1986 год стр 45

¹⁹ Дементьев И.П Идеиная борьба в США по вопросам экспонции. Москва 1973 год стр 112

iqtisodiy jihatdan ham o'ta zaif davlat bo'lgan Qo'shma shtatlar Yevropaning asosiy davlatlari bilan yana bir urishga madori qolmagan edi.

1793 yilning 22 aprelida Vashington 1778 yilgi Bitim shartlarini samarali ravishda bekor qilgan va Qo'shma shtatlar "urush holatidagi davlatlarga nisbatan do'stona va betaraflikni" e'lon qilgan. Amerika mustaqilligini ro'yobga chiqargan.

Fransiya elchisi Jeket AQSHga yetib kelganida ko'plab fuqorolar tamoni-dan olqishlar bilan kutib olingan, ammo hukumat tamonidan sovuq rasmiyat-chilik bilan qarshi olingan. Bundan g'azablangan Jenet asirga olingan. Qurol- yaroq bilan ta'minlamaslik va'dasini buzgan. So'ngra u hukumatni xatlab o'tib, o'z masalasini to'g'ridan-to'g'ri Amerika xalqiga yetkazishni po'pisa qilgan, natijada ko'p o'may Qo'shma shtatlar uning Fransiya hukumati tamo-nidan orqaga chaqirib olishni talab qilgan.

Britaniya bilan aloqalar qoniqarli maqomdan yiroq bo'lgan bir paytda Jenet Amerikaning Fransiya bilan aloqalarini yanada teranlashtirgan. Britaniya askarlari metralogiya inqilob davrida qo'ldan boy bergan va qaytarib olinma-gan yoki badal to'lo'vi olmagan mulki bo'lmish g'arbda joylashgan fortlarni ishg'ol etib bo'lgan edi va Britaniyaning harbiy dengiz floti Amerika kema-larini Fransiya portlarida qo'lga musharib ushlab turmoqda edi.

Bu masalalarni yechish uhun president Oliy sudning birinchi bosh hakami Jon Jeyni Londonga yuborgan. U Londonda Britaniya askarlarining g'arbiy fordlaridan olib chiqilishini ta'minlovchi bitimda 1793-1794 yillrda Britaniya tamonidan qo'lga kiritilgan kemalar va yuklar evaziga badal to'lashni, London-ning va'dasi yuzasidan muzokaralar o'tkazdi. AQSHning mavqeining zaiflash-ganligi bois bu bitim Amerikaning Vest-Indiya bilan savdo ishlariga jiddiy cheklashlar o'rnatdi va na Amerikaning kelajakda qo'lga olinadigan kemalari haqida yoki harbiy dengiz xizmatiga zo'raki tortish Amerika dengizchilari-ning Britaniya harbiy dengiz xizmati o'tashga majbur etish borasida hech narsa aytilmadi. Xarbiy dengiz extiyoj anjomlari va urush materiallari kontra-banda ekanligi va betaraf tamon kemalari ularni dushman portlariga keltirishi mumkin bo'lmagani haqidagi Britaniya mavqei bilan ham Jey rozi bo'ldi.

Bu bitim Federalistlar va endilikda Respublikachilar deb ataluvchi Anti-federalistlar orasida xorijiy siyosat borasida keskin kelishmo'vchiliklar yuzaga keltirdi. Federalistlar Britaniyaga yon bosish siyosatini yoqlashdi, chunki ular tarafdorlari bo'lgan tijoriy tabaqalar Britaniya bilan savdo sotiqdand foyda olar edi. Bundan tashqari Respublikachilar asosan idealogik sabablarga ko'ra Fransiya tarafdorlari bo'lib, Jey bitimini Britaniyaga haddan ziyod yon bosuv- chi deb baholashdi. Biroq uzoq muddatli tortushuvlardan so'ng Senat bu bitimni imzoladi.

Bunday ichki qiyinchiliklar xalqaro miqyosidagi chalkash vaziyat bilan uyg'unlashib ketgan. Yaqinda Britaniya bilan Jey tuzgan bitimdan g'azablan-gan Fransiya ilgari Britaniya qo'llagan dalildan foydalandi, ya'ni dushman portlariga yetkaziluvchi oziq-ovqat, harbiy dengiz ashyolari va urush anjom-lari Fransiya harbiy dengiz kuchlari tamonidan qo'lga tushirilgan o'ljadir.

1797 yili Fransiya Amerikaning 300 ta kemasini qo'lga olgan va Qo'shma shtatlardan butunlay aloqasini uzgan. Adams Parijga muzokaralar olib borish uchun uchta boshqa vakil yuborganoda xorijiy vazir Charlz Mouris de Taleyranning vositachilari (Adams Kongresga yuborgan xabarnomasida ularni X , Y va Z deb belilangan edi) Amerikaliklar voqif etishdiki agarda Qo'shma shtatlar Fransiya 12 million dollar qarz berib Fransiya hukumatining rasmiy hodimlariga pora bersagina bu muzokaralar boshlanishi mumkin edi. Amerika Fransiya nisbatan dushmanligi yuqori darajaga yetdi. X,Y,Z deb nomlangan

ish oqibatida askarlar harbiy xizmatga chaqirildi va AQSHning endi yuzaga kelgan harbiy dengiz floti yanada kuchaytirildi.

1799 yili Fransiya bilan qator dengiz to'qnashuvlaridan so'ng urush mu-qarrar ekanligi ko'rindi. Inqirozga duch kelgach Adams urush tarafdorlari bo'lgan Xamiltonning yo'nalishini chetga surib, Fransiya uchta yangi vakil yubordi. Endigina hokimyat tepasiga kelgan Napoleon ularni samimiy kutib olib va 1800 yilning Konventi bilan muzokaralar natijasida nizo havfi bartaraf etildi. Shu tariqa rasmiy ravishda Qo'shma shtatlar o'zining 1778 yilgi Fransiya bilan mudofa ittifoqi bo'yicha olgan majburiyatlaridan ozod etildi. Ammo AQSHning zaifligi bois Fransiya o'zining harbiy dengiz floti qo'lga kiritgan Amerika kemalari evaziga 20 million badl to'lashni rad etdi.

Fransiya nisbatan adovat oqibatida Kongres Amerika fuqorolik erkinlik-lari uchun jiddiy ta'sirga ega bo'lgan chet el fuqorosi va qo'poruvchilik faoli-yati qonunini qabul qildi. Fuqorolik maqomini olish uchun ma'lum muddatni 5 yildan 14 yilgacha yashovchilarga fuqorolik berish qonuni Respublikachi-larga madad berishda shubha qilingan Irlandiyalik va Fransiya muhojirlarni ko'zda tutgan edi. Atigi ikki yilga mo'ljallangan AQSHda yashovchi chet el fuqorosi qonuni prezidentga urush payti chet elliklarni mamlakatdan quvish yoki xibsga olish imkoniyatini berdi. Qo'poruvchilik faoliyati qonuni prezi-dent yoki kongresga qaratilgan qalbaki shov-shuvga sababchi va g'araz niyat bilan tarqatilgan har qanday ma'lumotlarni yozish, so'zlash yoki nashr etish qonunga hilof deb e'lon qilindi.

Qo'poruvchilik faoliyati qonuniga binoan mahkum etilgan bir necha odam timsolida fuqorolik erkinliklari yo;lida jafokash siymosi yaratilib, Respublika-chilarga madad kuchaydi.

Ammo bu qonunlar qafshilikka uchragan. Jeferson va J.Medison tamo-nidan 1798 yilning noyabr va dekabrda Kentukki va Virjiniya shtatlarining qonun chiqarish tarmoqlari tamonidan Kentukki va Virjiniya qarorlarining chiqarilishiga homiylik qildi. Bu qarorlarga binoan shtatlar federal hukumat faoliyatiga o'z qarashlarini kiritishi va ularni bekor qilishi mumkin edi. Bekor qilish nazariyasi keyinchalik ta'riflar masalasi va quldorlik yuzasidan janubiy shtatlar o'z manfaatlarini shimolga qarshi muhofazalanganda yanada tahlikali ravishda qo'llanildi.

1800 yilga kelganda AQSH xalqi o'zgartirishlar o'tkazishga tayyor edi. Kuchli Federalistlar iborat hukumat, Amerika hukumati xalq irodasi aks sado berishi zarurligi tamoyiliga berilib katta guruxlarni o'zlaridan turtib tashlan-gan siyosiy yo'nalishlarni qo'llashdi. Masalan : 1798 yili ular mamlakatning har bir mulkdoriga ta'sir etuvchi uy-joy yer va qullarga soliq kiritishdi.

Yetti yillik urish yakunlariga ko'ra Fransiya Missisipi daryosidan g'arbda joylashgan territoriyani daryo qo'shilishi yaqinidagi Yangi Orlean porti bilan birgalikda Ispaniya boy bergan. Bu port esa Amerika mol mahsulotlarini Ogayo va Missisipi vodiylaridan kemalarga ortish uchun o'ta zarur edi. Imperator Napoleon zaif Ispaniya hukumatining Luizaniya deb atalgan buyuk o'lkani Fransiya qaytarishga majbur etdi. Bu holat AQSH ma'muriyatini keskin noroziligiga sabab bo'lgan.

Qo'shma Shtatlarning bevosit g'arbda joylashgan ulkan colonial imperiya barpo etish bo'yich Napoleonni rejalari Amerika ichkarisidagi barcha ko'chkinchilarning tijorat huquqlari va havfsizligi uchun hatarli edi. Buni Jeferson shunday ta'riflaydi : "Fransiya

Luizianani qo'lga kiritisa, shu damdan boshlab biz o'zimiz Britaniya floti va davlati bilan nikohdan o'tishsa majbur bo'lamiz.”²⁰

Buyuk Britaniya bilan yana bir urush muqarrar ekanligini bilgan Napoleon Luizianani Qo'shma shtatlarga sotib o'z hazinasini to'ldirishga va shu orqali Luizianani Britaniya ta'siridan chetga chiqarishga qaror qilgan. Bu holat prezidentni qattiq tashvishga slogan Konsititutsiya hukumatga territoriyalar sotib olish vakolatini bermagan edi. Shunda prezident oldiniga Konsititutsiya-ga qo'shimchalar kiritishga qaror qildi, ammo uning maslahatchilari, bu ishni keyinga qoldirishni Napoleonn o'z fikridan qaytarishni, territoriyalar sotib olish vakolati esa bitimlar tuzish doirasida qonuniydir, deb hisoblashdi.

Ammo 1803 yili Qo'shma shtatlar 15 million dollarga Luizianani haridini amalgam oshirishdi. Unga 2 600 000 kvadrat kilometr yerlar hamda yangi Orlean porti kirgan edi. Yosh davlat shu qadar serunum yerlar, tog'lar, o'r-monlar va daryolarni qo'lga kiritgan ediki, ular 80 yil mobaynida mamlakatning yuragi va dunyoning eng yirik qisimlardan biriga aylanishi muqarrar edi.

1805 yili Jeferson prezidentligining ikkinchi muddatida u Buyuk Britaniya va Fransiya urushida Amerikaning betaraf qolishini e'lon qilgan. Ikkala taraf ham bir-biriga betaraf kemalar qatnovini cheklashga intilganiga qaramay Britaniyaning dengizdagi nazorat uning ta'qib va qo'lga olish qudratini Napoleon Fransiyasiga nisbatan ancha sezilarli darajada ko'targan edi.

1807 yili harbiy dengiz qurolli kuchlari 150 000 dengizchilari va dengiz askarlari bilan bog'langan 700dan ortiq harbiy kemalardan tarkib topgan edi. Bu qudratli kuch dengiz yo'llarini nazorat ostiga olib, Fransiya portlarini to'sish, Britaniya tijoratini muhofazalash va Britan koloniyalari uchun hayotan muhim aloqa yo'llarini qo'riqlash vazifasini bajargan. Britaniya flo-tida xizmat qiluvchilar shu qadar og'ir sharoitlarda yashar ediki, tarkibiga, o'z hohishiga jalb etish imkoniyati yo'q edi. Oqibatda ko'p dengizchilar qochar va AQSH kemalarida panoj topar edi. Bunday sharoitlarda Amerika-liklarning xo'rlanishini keltirib, Britaniya zobidlari Amerika kemalarini tintish va Britaniya shaxslarini qaytarishni o'z huquqi deb hisoblardi. Undan tashqari Britaniya zobidlari ko'pinchalik Amerika dengizchilarining o'z harbiy hizmatiga turli yo'llar bilan jalb etishgan.

AQSH ma'muriyati Britaniya kemalariga nisbatan AQSH territorial suvlarini tark etishga buyuruvchi bayonot sodir etganida Britaniya yanada ko'proq dengizchilarni o'ziga tortish bilan javob berdi. Bunga javoban Britaniyani chekintirish maqsadida, AQSH rahbariyati iqtisodiy bosim qo'l-lashga qaror qildi. 1807 yili dekabr oyida Kongres barcha xorijiy tijorat turlarini man etuvchi Embaryu qonunini qabul qildi. Taqdir hazily shundan iborat ediki cheklangan vakolatli hukumat tarafdorlari bo'lgan Respublikachi-lar milliy hukumat qudratini kengaytirgan qonun sodir etishdi. Natijada bir yilning o'zida Amerika eksporti oldingi hajmining beshdan bir ulushigacha tushib ketdi. Kema uklari tashish manfaatlari bu chara oqibatida deyarli vayron etildi va Yangi Angliya hamda Nyu-Yorkda norozilik kuchaydi. Janub va g'arb fermalari o'zlari yetishtirgan don, paxta, go'sht va tamaki mahsulotlarini eksport qila olmagach narx-navo tushub ketgan va qishloq ho'jalik manfaatlari og'ir talofatga duch keldi.

Embargo oqibatida Buyuk Britaniya o'z siyosatini o'zgartirdi degan umid puchga chiqdi. Mamlakat ichkarisida AQSH ma'muriyati kema yuklarini tashish manfaatlarini qoniqtiradigan mo'tadil tadbir qo'llashga o'tdi.

²⁰ Манфред А.З Наполеон Бонапарт М.: . Мысл 1986 стр 57

1809 yilining boshida u Britaniya yoki Fransiya va ularning manfaatdor-laridan o'zga barcha davlatlar bilan savdo-sotiq qilishni ruhsat etuvchi aloqa-larga aralashmaslik qonunini imzoladi.

1809 yili Jemas Medison prezidentlik lavozimiga o'tirgandan so'ng, Buyuk Britaniya bilan aloqalar yanada yomonlashib ikki davlat urish arafasi-ga kelib qolgan edi. Prezident AQSH fuqorolariga nisbatan Angliya zo'rovon-likka yo'l qo'ygan bir necha ming insonlar keltirilgan batafsil hisobotni Kon-gresga taqdim etgan. Qo'shimcha ravishda shimoliy-g'arbda yashovchi ko'ch-kinchilar hindularning hujumlaridan zarar ko'rmoqda edi. Ularning ta'kid-lashicha bu bosqinlar Kanadadan Britaniya vositachilari orqali uyushtirilmoq-da edi. Bu harakatlar ko'p amerikaliklarni Kanadani bosib olishga undar edi. Bunday hatti-harakat muvaffaqiyati hindularga Britaniyaning ta'sirini bekor qilib, koloniyalarga yangi yerlar fatx etishi lozim edi. Dengizchilarni hibsga olishdan keskin g'azablanish xissiyoti Kanadani ishg'ol etishga intilishi bilan birgalikda urush vasvasasini vujudga keltirgan va natijada 1812 yili Qo'shma shtatlar Britaniyaga qarshi urush e'lon qildi.

Mamlakat Britaniya bilan yana bir urushga tayyorgarlik ko'rar ekan, Qo'shma shtatlar ichki qarama-qarshiliklariga muhtalo edi, janub bilan g'arb urush tarafdori bo'lgan bir holatda Nyu-York va Yangi Angliya urushga qarshi chiqqan, chunki tijorat ishlariga halaqit berar edi. Urush e'lon qilinga-nida harbiy tayyorgarlik nihoyasiga yetishishidan ancha yiroqda edi.

Muntazam armiyadagi askarlar soni 7 000 kishi bo'lib, ular Kanada bilan chegara yaqinida, mamlakat ichkarisida va sohil bo'ylab keng yoyilgan rabot-lari tarqoq edi. Bu askarlar shtatlarning imtizomsiz xalq lashkari tamonidan kuchaytirilishi lozim edi.

Ikki davlat orasidagi adovat Kanadaga bosqindan boshlangan, tegishli paytda va mutonosib ravishda ijro etilgaganida bu yo'nalish Monrealga qarshi qo'shma harakatlarga keltirilishi kerak edi. Ammo butun kompaniya mag'lubiyatga uchradi. Detroid shahrining Britaniya qo'shini tamonidan ishg'ol etilishi bilan tugadi. Biroq AQSH harbiy dengiz floti ustuvorlikka erishdi va o'ziga bo'lgan ishonchni yana qayta tikladi. Qo'shimcha ravishda Atlantika okeanida to'plangan AQSH kemalari 1812-1813 yillarning kuz va qish oylari mobaynida Britaniyaning 500 ta kemasini qo'lga tushurdi.

1813 yilning harbiy kompaniyasi Eri ko'lida markazlashgan. General Uilyam Xenri Xarrison keyinchalik prezidentlik lavozimiga o'tirgan Detroyni qayta ishg'ol etish niyatida Kentukkidan xalq lashkarlari, ko'ngillilar va muntazam askarlardan tashkil topgan qo'shinni boshlab bordi. 12 sentabrda bu qo'shin Ogayi tepaliklarida bo'lganida harbiy dengiz kuchlarining qo'mondoni Oliver Xazar Perri Britaniya flotini Eri ko'lida tor-mor etganligi haqidagi xabar yetib keldi. Shunda Xarrison Detroytni ishg'ol etdi va Kanada tomon yurib qochayotgan Britaniya kuchlari va ularning hindu ishti-rokchilarini Temza daryosida mag'lubiyatga uchratdi. Shu tariqa mintaqa tepaligi AQSH nazorati ostiga o'tdi.²¹

Bir yildan so'ng Nyu-Yorkdan yuqorida joylashgan Chempleyn ko'lida dengiz qo'mondoni Tomas Makdonau Britaniya Flotiyasi bilan yuzma-yuz otishma jangida g'olib chiqqanida urush maromida yana bir hal etuvchi burilish sodir bo'ldi. Dengizda harbiy madaddan mahrum bo'lgan 10 000 kishilik Britan bosqinchi kuchlari Kanada tamon chekindi.

²¹ Дементьев И.П. Идейная борьба в США по вопросам экспонции. М.: 1973 стр 147

Taqriban shu paytda “vayron etish va sahroga aylantirish” buyrug’ini olgan Britaniya floti Sharqiy sohil aholisining tinkasini quritmoqda edi. 1814 yilning 24 avgust kechasi harakatlangan qurolli kuchlar federal hukumat poy-taxti Vashingtonga to’satdan bostirib kirgan va bu yerni yoqib tashlashdi. Prezident Jeyms Medison esa arang Virjiniyaga qochib qutildi.

Shundan so’ng ham urish harakatlari davom etar ekan Britaniya va AQSH muzokarachilari bir-birlaridan yon bosishni talab etishdi. Biroq qo’mondon Makdonau Champleyn ko’lida erishgan g’alabasidan xabardor bo’l-gach, Britaniya elchilari yon bosishga qaror qilishdi. So’ngra Vashington ta-monidan kelishuv bitimi imzolandi, unda asosan Napoleon urushlarining hatti-harakatlari oqibatida Britaniya hazinasining kamayganligi bois Buyuk Britaniya muzokarachilari 1814 yilning dekabrda Gent bitimining shartlarini qabul qilishdi.

Imzolangan sulh shartnomasiga binoan g’animlik harakatlarining tugashi egallangan territoriyalarining tiklanishi va chegara nizolarini hal etish uchun maxsus komissiya tuzilishini ta’minladi. Tinchlik sulhi imzolanganiga qara-may ikki tamon qo’shinlari Yangi Orlean, Luizianada kurashni davom ettir-moqda edi. General Endryu Jekson boshchiligidagi Amerikaliklar urush davomida eng yirik yer egallash g’alabasiga muvaffaq bo’lishdi.

Britaniya va AQSH ma’muriyati tamonidan bitim yuzasidan muzokaralar olib borilayotgan bir paytda Masachuset, Rod-Aylend, Konnektiut, Vermont va Nyu-Gempshir shtatlarining qonun chiqarish tarmoqlari tamonidan saylangan Federalist vakillari Konnektikutning Xartfordida “Janob Medison urushiga qarshi muholifatning ramzi bo’lgan majlisga to’planishgan.”

Nizoga qaramay Yangi Angliya dushman bilan savdo-sotiq olib borishga undalgan edi, ayrim sohalar bu tijoratdan katta foyda olib gullab yashnar edi.

Ammo urush mamlakatni iqtisodini vayron etib, izdan chiqardi deb ta’kidlagan Federalistlar. Ichki siyosat raqobat natijasida esa ayrim Konvent-ning ba’zi vakillari Ittifoqdan chiqib ketish istagini bildirganlar. Biroq ko’pchilik respublikachilarning ta’sirini chegaralash uchun qator shu jumladan 60 kundan ko’p davom etuvchi Embargolarni man etuvchi va yangi prezident oldingi prezident bilan bir shtatda bo’lishini taqiq etuvchi konsititutsion qo’shimchalar kiritishga rozi bo’ldi.

Xartford Konventining elchilari Vashingtonga yetib borganida urish tugab qolgan edi, Xartford Konventi Federalistlarni loyoqatsizlik tamg’asi bilan muhrlagan va ular bu dashnomdan anchagacha qutila olmadilar.

Ijtimoiy – iqtisodiy hayot .

AQSH ma’muriyati vakillari o’z faoliyati davomida mamlakat tarixida chuqur iz qoldirgan Federalistlar va Antifederalistlar orasidagi kurash alohida o’rin egallagan. Federalistlar asosan iqtisodiy hayotda dengiz portlarining shahar savdo-sotiq manfaatlarini ifoda etgan holda, Antifederalistlar esa qish-loq ho’jaligi va janubiy hududlar nomidan faoliyat ko’rsatishgan.

Federalistlar tijorat va sanoat manfaatlari yo’lida ish yurutuvchi kuchli markaziy hokimyat hokimyat barpo etishga urunganlar, ular ijtimoiy hayotga samaradorlik, tartib-intizom va tashkilotchilik maylini namoyon etgan, xalq ishonchini mutonosib madadi borasida vakillar palatasi da’vat etgan rejaga javoban u faqat davlat iqtisodi tamoyillarini balki samarali hukumatni ham ro’yobga chiqarishi targ’ib etgan sanoat rivoji tijoriy faoliyat va hukumat hatti-harakatlariga AQSH xalqini ishonchi hamda bu masalalar

xalqning to'liq ishonchi va madadiga erishmog'i lozimligini ta'kidlardi. Davlat qarzini pasaytirish yoki uni faqat qisman to'lashni istaganlar ko'p bo'ldi. Biroq Xamilton bekami ko'st to'lovlar hamda inqilob davrida shtatlar olgan qarzlarni Federal hukumat o'z zimmasiga olish rejasini olish tarafdori edi.

Shu bilan bir qatorda Qo'shma shtatlarning bankiga mamlakat turli bur-chaklarida o'z tarmoqlarini ta'sis etish huquqi ham dastlab Federalistlar tamo- nidan ilgari surilgan bo'lib, ulardan meros bo'lib qolgan. Ular davlat pul zarb etish korxonasiga xomiylik qildi va taraflar foydasiga "chaqaloq sanoat" dalilini keltirgan, ya'ni yangi paydo bo'layotgan firmalarni vaqtincha muhofaza qilish, raqobatbardosh milliy sanoat sohalarining rivojlanishini tez-lashtirishga ko'maklashdi.

Mana shunday choralar firmaning ta'sis sarmoyasiga federal hukumat-ning kredit ajratishi va u muhtoj bo'lgan barcha daromadlarini berish, tijorat va sanoatni rag'batlantirdi, hamda milliy hokimyat orqasida qat'iy turgan biznesmenlarning zabardas tabaqasini vujudga keltirgan.

Antifederalistlar esa markazlashtirilmagan agrar respublikani yoqlab chi-qishgan, xorijiy davlatlar bilan aloqalarda kuchli markaziy hukumatning aha-miyatini tan olganlar, ammo o'zga sohalarda kuchli bo'lishni istashmagan.

1800 yillarga kelganda AQSH xalqi o'zgartirishlar o'tkazishga tayyor edi, chunki Federalistlar kuchli hokimyat barpo etib, biroq bazan Amerika hukumati xalq irodasiga aks sado berishi zarurligi tamoyiliga berilib katta gu- ruhlarni o'zlaridan turtib tashlagan siyosiy yo'nalishlarni quvvatlashgan. Masalan: 1798 yili ular mamlakatning har bir mulkdoriga ta'sir etuvchi uy-joy, yer va qullarga soliq kiritganlar.

Shu yillardagi saylovlarda muvaffaqiyatga erishgan Antifederalistlar mamlakat aholisi orasida tartibni saqlash yo'lida oqil va tejamkor hukumat barpo etishga, shu bilan birga sanoat ishlari shug'ullanish va ularni yahshi-lash borasida erkinliklarini o'zlarida qoldirishga va'da bergan.

AQSH – Angliya urushi (1812 yil) mustaqillik uchun olib borilgan ikkin-chi urush bo'lib, undan ilgari Qo'shma shtatlarga davlatlar qatoridan teng maqom berilmagan edi. Bu urushning tugashi bilan inqilob davridan beri yosh respublika boshidan kechirayotgan jiddiy qiyinchiliklarning ko'pi ortda qoldi. Konsitutsiya panohida vujudga kelgan davlat ittifoqi ozodlik va tartib orasida muvozanatni vujudga keltirdi.²²

Past davlat qarzi va kashf etilishiga muntazir qit'a orqali davlat tinchlik va farovonlik istiqboli hamda ijtimoiy taraqqiyot sari yo'l oldi.

Tijorat davlat birligini mustahkamlab, urush davri qiyinchiliklari, Amerika ishlab chiqaruvchilari horijiy raqobatga dosh bera oladigan darajada taraqqiy etib, o'zlari oyoqqa turib olmaguncha ularning himoyalashning ahamiyatini yaqqol namoyon etdi. Foydasiga ko'p dalillar keltirgan iqtisodiy mustaqillik ham huddi siyosiy mustaqillik bilan bir Hilda juda muhim edi.

O'z-o'zini qondirish jarayonini tezlashtirish niyatida Kongresning rahbar-lari Kentukkilik Xenri Kley va janubiy Koralinalik Jon S.Kalxaun proteksionizm ya'ni Amerika sanoatining rivojlanishini tezlashtirish maqsadida import qilinuvchi mol mahsulotlarga cheklashlar kiritish siyosatini yoqlab chiqdilar.

²² Арш . .Г.Л Новая история стран Европы и Америки М.: 1986 стр 57

Boj tariflarini ko'tarish uchun qulay vaziyat yuzaga kelgan edi. Vermont va Ogayoning qo'y boquvchilari Angliya junlarining ko'p miqdorlarda Amerikaga olinib kelinishiga qarshi himoyaga juda muhtoj edilar. Kentukkida paxta qoplarini mahalliy kanopdan to'qish sanoatining yangi sohasi esa Shotlandiya qop-kanor to'qish sanoati tamonidan tahlika ostiga qo'yilgan edi. Pensilvaniya shtatining Mitsburgida gullay boshlagan temir quyish markazi Britaniya va Shvetsiyaning temir ishlab chiqariluvchilari bilan bellashishga intilar edi.

1816 yilgi o'rnatilgan ta'rif mahalliy ishlab chiqaruvchilarni sezilarli hi-moyalash uchun yetarli darajada yuqori boj soliqlarini kiritdi. Qo'shimcha ra-vishda o'z mintaqalarini sharqdagi shaharlar va portlari bilan bog'lash hamda chegara bo'yi yerlarini turar joylar uchun o'zlashtirish niyatida g'arbliklar yo'l kanallarining avlat tuzilmasini olib chiqishdi. Biroq Yangi Angliya va janub qarshi turganligibois g'arbliklar mamlakat ichkarisidagi hayotni yaxshilash borasida federal hukumat rolini kuchaytirish talablarini o'tkaza olmaganlar. 1916 yili Federal "Tez yurar yo'llar qonuni" qabul qilin-maguncha yo'llar va kanallar shtatlarning qaramog'ida qolib ketgan.

O'sha paytlarda federal hukumat mavqei Oliy Sudning qarorlari yordamida o'ta kuchaytirilgan. Virjiniyalik sodiq federalist Jon Marshal 1801 yili Oliy Sudning bosh hakami lavozimini egallab to vafotiga qadar o'z va-zifasini sidqidildan bajarib kelgan. Uning rahbarligida ilgari zaif bo'lgan sud qudratli mahkamaga aylanib, Kongres va prezident bilan teng maqomga erish-di. Tarixiy qarorlarning uzviyligini ta'minlash uchun Marshal hech qachon bir asoskor tamoyildan chetga chiqmagan, ya'ni Konsititutsiyaning ustuvor-ligiga qat'iy rioya etgan.

Konsititutsiyaning ma'nosi va qo'llanilishi o'z qarorlari bilan shakil-langan Oliy Sud hakamlarining uzun silsilasida Marshal birinchi bo'lgan. U o'zining uzoq muddatli xizmatini o'tab bo'lganida Oliy Sud Konsititutsiyasi yuzasidan 50 ga yaqin ishlarni hal etib bo'lgan edi. Uning mashxur qarorlari-dan biri "Medisonga qarshi Merburn" (1803) ishi yuzasidan yuritgan hukmiga binoan Marshal kongres yoki shtatlarning qonun chiqaruvchi tarmoq-lariga binoan hukumatning nazarda tutilgan kuch-qudrat vakolatlari borasidagi masala bilan bog'liq "Merilend shtatiga qarshi Mekkulok" (1819yil) ishida esa Marshal Xamiltonning nazariyasini himoya qilib, unga binoan aniq ifo-dalangan vakolatlar ortida nazarda tutilgan kuch-qudrat vakolati ham Konsiti-tutsiya tamonidan hukumatga beriladi.

Ayni paytda qadar jamoatchilik nazdida ham e'tibor berilgan qullik umumdavlat muommo tariqasida ancha ko'proq ahamiyat kasb eta boshlaydi. Respublikaning ilk yillarida shimoliy shtatlar qullarning darhol yoki asta se-kin ozod etilishini ta'minlagan bir paytda ko'p rahbarlar qullik yo'q bo'lishi kerak deb, taxmin qilishar edi.

1786 yili Jorj Vashington bu haqida shunday degan edi : birona reja qa-bul qilinishi va unga binoan qullik asta sekin izchil va ilg'amas ravishda bekor etilishini istar edim. Barchasi Virjiniyalik bo'lgan Jeferson, Medison, Moirou hamda janubning boshqa yetakchi arboblari ham shunga o'hshash bayonotni qabul qilishdi. 1787 yilning shimoliy-g'arbiy Ordonansi qullikni shimoliy-g'arbiy mintaqada man etdi. 1808 yili xalqaro miqyosida qillar oldi-sottisi man etilganda ko'p janubliklarning fikricha qullikning kunlari botib qolgan edi.

Ammo bu umidlar puchga chiqqan, chunki kelgusi avlod hayotida ja-nub qullik tizmasini bir ovozdan yoqlab chiqdi, chunki yangi iqtisodiy omil-lar qullikni 1790 yildan oldingi vaziyatga nisbatan ancha ko'proq daromad keltiruvchi sohaga aylantirdi.

Janubdagi paxta yetishtirish sanoatining ulkan rivoji mazkur iqtisodiy yangiliklardan eng asosiysi bo'lib, paxtaning yangi navlarini tadbiq etish va 1793 yili Eli Uitni ixtiro etgan paxta tozalash (paxta tolasini chigit urug'lari-dan ajratish) uskunasi tamonidan rag'batlantirildi. Ayni paytning o'zida to'qi-machilik sanoatini keng qamrovli faoliyat sohasiga aylantirgan.

Sanoatlashtirish ikkalovi ham paxtaga bo'lgan talabni keskin ravishda ko'tar-di. 1812 yildan keyin g'arbda yangi yerlarning o'zlashtirilishi paxta yetishtirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan yerlarni sezilarli darajada kengaytirdi. Paxta yetishtirish madaniyati sharqdagi sohil bo'yi yerlaridan quyi janub ta-mon orqali tez sur'atlar bilan Missisipi deltasining mintaqasi va xatto Texas tamon siljiy boshladi.²³

Mehnat kuchi talab etgan yana bir soha shakarqamish yetishtirishdir. U ham janubda qullikni saqlab qolinishga o'z hissasini qo'shgan. Janubiy-shar-qiy Luiziananing serunum yerlari va issiq iqlimi daromad olish niyatida sha-kerqamish o'stirish uchun o'ta mos edi. 1830 yilga kelib bu shtat davlatning shakarga bo'lgan extiyojini deyarli yarmini qondirar edi. Va nihoyat tamaki yetishtiruvchilar g'arb tamon siljib, qullarni ham o'zlari bilan olib ketishar edi.

Shimolning ozod jamiyati va janubning quldorlik jamiyati g'arb tamon siljiyotgani sayin g'arbiy mintaqalarda yuzaga keluvchi yangi shtatlar orasida o'ziga hos tenglikni saqlab turish siyosiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lib ko'rindi. 1818 yili 10 shtat qullikni ruhsat etgan bo'lib, 11 shtat unni taqiqlagan edi, biroq Alabama quldorlikni yoqlovchi shtat sifatida ittifoqqa qo'shilganda muvozanat tiklandi.

Shimolda aholi soni tez sur'atlar bilan o'smoqda edi va shu tufayli shi-moliy shtatlar Vakillar palatasida aniq ifodalangan ko'pchilikka ega bo'ldi. Ammo Senatda shimol va janub orasida teng vakolat saqlanib qolgan edi. 1819 yili 10 000 qullar bor Missouri shu ittifoqqa kirishga ariza berdi, shi-molliklar uni faqat ozod jamiyatli shtat sifatida qabul qilish shartini qo'ygan va natijada norozilik to'foni mamlakatni qamrab olgan.

Kongres mana shunday muommoli vaziyat holatiga tushub qolganida Henri Kley "Missuri murasasi" deb atalgan rejani taklif etdi. Missouri quldor-lik shtati sifatida ittifoqqa kiritildi, biroq muvozanatni saqlab qolish maqsa-dida Men shtati ozod jamiyatli shtat sifatida ittifoqqa kiritildi. Qo'shimcha ravishda Kongres Luizyanani xaridini o'z ichiga qamrab olgan Missuriyning janubiy chegaralaridan shimol tamonga qullikni man etdi. Shu paytda bu qaror janubiy shtatlar uchun g'alabani bildirar edi.

Idora yuritishning birinchi muddati tugashiga yaqin Jekson himoya qil-gan ta'riflar yuzasidan janubiy Koralina shtatiga qarshi turishiga majbur etil-gan, shtatlardagi biznes va fermerlik manfaatlari o'zaro uzoq muddat qarshilik ko'rsatgan ta'rif qonunlarini o'zgartirish uchun Jekson prezidentlik vakolati-dan foydalandi, deb umid qilishdi. Ularning nazdida ta'riflar himoyasidan turuvchi barcha foyda shimol mintaqasi ishlab chiqaruvchilari hisobiga o'tib ketmoqda edi va mamlakat umuman olganda tabora boyigan sari janubiy Koralina tabora qashoqlashib bormoqda edi. Uning plantatorlari yuqori narx-lar yuki ostida ezilib bormoqda edi. 1832 yili Kongres tamonidan sodir etil-gan va Jekson tamonidan qonun kuchini olish uchun imzolangan himoya ta'-riflari 1828 yilning ta'riflariga nisbatan mo'tadil edi. Biroq ular shtat aholisi-ning ko'p qismini yanada g'azablantirdi. Unga javoban janubiy Koralina shtati-ning qator fuqorolari shtatlarning "bekor etish" tomoyilini ma'qullab chiqish-gan. Bu tamoyil 1832 yilgacha Jeksonning vitse prezidenti bo'lgan Jon.S.Kal-xaun tamonidan "Janubiy Koralina izohi va noroziligi" (1828

²³ Арш . .Г.Л Новая история стран Европы и Америки Москва 1986 год стр 62

yilda) e'lon qi-lingan edi. Janubiy Koralina ta'rifga binoan bekor etish Ordanansini qabul qildi, unga binoan 1828 yilga o'hshab 1832 yil ta'riflari shtat hududlarida bekor qilinib, xech bir kuchga ega emas ekanligi e'lon qilindi. Shtatning qo-nun chiqarish tarmog'i bu Ordanansini tadbqiq etish uchun qonunlar chiqardi va shu jumladan qurolli kuchlarni safarbar etish, qurol aslaha sotib olishga mablag' ajratish vakolatini ham berdi.

Bekor etish huquqi federal hukumat vakolatlariga shtat tomonidan bildi-rilgan norozilik silsilasiga faqat endi so'ngilaridan biri edi. Umumdavlat huku-matining vakolatlari va hatto respublika ta'sis etib bo'lganidan so'ng ham fuqorolik sadoqati borasida federal hukumat va shtatlar orasida doimiy nizolar mavjud edi. Masalan: Kentukki va Virjiniya shtatlarining 1798 yilgi qarorlari chet el fuqorosi va qo'poruvchilik qonunlarini nazar pisand qilmadi. Xardford Konventida Yangi Angliya shtati president J.Medison va Britaniya-ga qarshi urushga nisbatan o'z noroziligini namoyon etdilar.

Janubiy Koralina shtatining taxlikasiga javoban 1832 yining noyabrida Jekson Charlstounga yettita kichik harbiy dengiz kemalarini va bitta harbiy flagman yubordi. 10 dekabrda esa bekor etuvchilarga qarshi qaratilgan va aks-sado olgan bayonotnoma e'lon qilindi. Janubiy Koralina g'alayoni hiyonat

Yoqasiga kelib qoldi, deb e'lon qilindi. Prezident va shtat aholisining o'z ota- bobolar jang qilgan ittifoqqa o'z layoqatlarini qayta tiklashga da'vat etgan.

Soliqlar ta'rifi masalasi Kongresda qaytadan ko'rilganidan so'ng tez orada shu narsa ayon bo'ldiki, faqat bir kishi proteksionizmning ashaddiy hi-moyachisi va Jeksonning siyosiy raqibi senator Henri Kley Kongres uzra murosas chorasini olib o'tishga qodir edi. Kley kiritgan ta'riflar bil'li (qonun loyihasi) tezlik bilan 1833 yili qabul qilinib, shuni belgiladiki, import qilina-digan mol mahsulotlar hajmining 20 foizidan oshuvchi barcha soliqlar pasay-tirilishi lozim deb belgilandi. Shu tariqa 1842 yilga kelib, barcha moddalar bo'yicha ta'riflar 1816 yilning mo'tadil darajasiga yetishi nazarda tutilgan edi.

Janubiy Koralinalik bekor etuvchilarning yetakchilari Janubning o'zga shtatlari madad berishlarini kutgan edi, biroq janubiy shtatlar yakdillik bilan janubiy Koralina hatti-harakatlarini oqilona emas, balki Konsititutsiyaga xilof deb topishdi. Janubiy Koralina o'z faoliyatini bekor qildi. Shunga qaramay ik- kala tamon ham g'alabaga davogar bo'ldi. Jekson federal hukumatni Ittifoq oily maqomga molikligi tamoyiliga keltirdi. Biroq Janubiy Koralina o'z qar-shiligini namoyon etib, o'zi intilgan talablarning ko'pi qondirilishiga erishdi va yagona shtat o'z irodasini Kongresga o'tkaza olishi mumkinligini namo-yon etdi.²⁴

Bekor etish muommosi hal etilishidan oldinroq Jeksonning yetakchi mavqeiga qarshi chiqqan o'zga bir ziddiyat ro'y bergan edi. Uning mohiya-tiga ko'ra Qo'shma shtatlarning ikkinchi bankini qayta ta'sis etish bilan bo'g'liq edi. Birinchi bank A.Hamilton rahbarligida 1791 yildan boshlab 20 yillik muddatga ta'sis etilgan edi, hukumat uning muayyan aksiyalariga ega-lik qilgani bilan u hukumat banki emas edi, aksincha bank o'z aksiya sohib-lariga daromad keltiruvchi xususiy korporatsiya edi. U pul muomilasining barqarorlashtirish va savdo-sotiqni rag'batlantirishga qaratilgan edi, biroq u g'arbliklar va mehnat ahlining qaxrini keltirgan edi. Missuriylik senator Tomas Xard Benton bilan birgalikda ular bilishar ediki' bu bank bir necha qudratli odamlargagina alohida diqqat e'tibor beruvchi mahluq edi. Uning ta'sisi muddati 1811 yili nahoyasiga yetganida vakolati qayta tiklanmagan.

²⁴ Арш . .Г.Л Новая история стран Европы и Америки М.: 1986 стр 84

Kelgusi bir necha yil davomida bank ishi shtatlar ta'sis etgan banklar qo'liga o'tgan, ular xaddan tashqari pul chiqarib alg'ov-dalg'ov vaziyatni yu-zaga keltirgan va inflyatsiya darajasini avj oldirgan. Shtat banklari mamla-katni bir hildagi pul muomilasi bilan ta'minlay olmaslik taboro ravshanlashib bordi va 1816 yilning aynan birinchisiga o'xshash qo'shma shtatlarning ikkin-chi banki yana 20 yil muddatga ta'sis etilgan.

Dastlabki vaqtlardan oq bu bank mamlakat o'zga, faravonlik darajasi past bo'lgan odamlarning nazdida yahshi nom qozona olmagan. Muholiflar-ning ta'kidlashlaricha, mamlakat bo'ylab kredit va pul muomilasini o'z qo'li-ga olib bir to'da ma'lum insonlarning manfaatlarini ifodalar edi. Umuman olganda bank yahshi boshqarilgan va diqqatga sazovor xizmatlar taklif etgan, ammo xalq tamonidan bankka qarshi turganligi tufayli saylangan Jekson bankni yangi muddatga qayta ta'sis etish qonun loyihasiga ta'qiq o'rnatgan.

Kongresga yuborgan nomasida monopoliya va maxsus imtiyoz berishni qoralab, bir necha marta matbuotlarda chiqishni amalgam oshirgan. Shundan so'ng ro'y bergan saylov kompaniyasiga bank muommosi odatda pul tanqis-ligi va yuqori ustama foyizlarini hush ko'rgan kreditorlar bo'lgan tojirlar, ishlab chiqaruvchilar va moliyaviy manfaatlar hamda ko'pincha banklarga qarzdor bo'lganligi bois pul ta'minotini ko'tarilishi va pastroq ustama foizlarini yoqlab chiqqan mehnatkash aholi va qishloq ho'jalik ahli orasida ixtiloflarni yuzaga keltirgan.

Natijada Jeksonchlik ehtirosli madad olan 1832 yili ikkinchi marotaba Prezidentlik lavozimiga qayta saylangan Jekson bankni uzil-kesil yo'q qilib tashlashga berilgan xalq madadi deb bildi va davlat fondlarini ko'chirishga vakolat beruvchi bank ta'sis nizomining shartida tayyor qurol topdi. 1833 yilning sentabrida "Minba'd" bankka hukumat pullari deposit emasligiga o'tkazib bo'lgan pullar esa hukumat harajatlarini qoplash uchun asta-sekin bankdan chiqarib olinishiga buyruq berdi.

Extiyotkorona ravishda tanlab olingan va qattiq qo'llik bilan chegara-langan shtat banklari o'rin bosuvchi sifatida tayinlandi. Kelgusi avlod umri davomida Qo'shma shtatlarga nisbatan batartib shtat bank tizimiga erishmag'i muqarrar bo'lib, arzon kreditlar orqali g'arb tamon siljishni avj oldirishga ko'maklashdi, biroq davlatni qaytariluvchan vahimayu sarosimaga tasirchan qilib qo'ydi, to fuqorolar urishiga qadar Qo'shma shtatlar umumdavlat bank tizimini tashkil eta oladi.

Bu davrda ijtimoiy-iqtisodiy hayotda demokratik burilish Amerikada barcha fuqorolari uchun yanada ko'proq huquqlar va qulay imkoniyatlar izlashyo'lida birinchi bosqich bo'ldi, o'zga bosqich mehnat kuchining uyush-gan tashkiloti bo'ldi. 1835 yili Filodelfiya va Pensilvaniya mehnat kuchi avvalgi qorong'udan qosh qorayguncha ish kunini 10 saotlik ish kuniga o'zgartirishga muvaffaq bo'ldilar. Nyu-Xempshir, Rod-Aylend, Ogayo va ittifoqqa kirgan yangi shtat Koliforniyada ham shunga o'xshash islohotlar o'tkazildi.

Ovoz berish huquqining tarqalishi oqibatida uzoqni ko'zlovchi davlat arboblari yoppasiga ovoz berish jrayoniga ma'rifatsiz va uquvsiz saylovchilar tug'diruchi tahlikani his etgani bois ta'lim va tarbiya sohasida yangi nazariya vujudga kelgan edi. Bunday harakat yetakchilari barcha bolalar uchun bepul, soliqlar yordamida madad oluvchi maktablarning ochilishini talab etishgan. Asta sekin shtat ortidan shtat mazkur bepul ta'limni kiritish uchun qonunlar tadbiiq etib bordi. Davlat maktablari tizimi mamlakatning shimolida umumiy avj oldi. Biroq mamlakatning o'zga qisimlarida davlat ta'limi uchun kurash yana uzoq yillar davom etdi.

Bu davr mobaynida yuzaga chiqqan o'zga nufuzli ijtimoiy harakat alkagol ichimliklar sotish va ichishga qarshi chiqqan "ichmaslik" harakati bo'lgan. U turli tuman tashvishlar va sabablardan zuhur topdi. Shular jumla-sidan diniy e'tiqodlar, alkagolning mehnat kuchiga salbiy ta'siri, jinoyatlar va ichkilikka mukkasidan ketganlar dastidan ayollar va bolalarning ozor ko'rishi. 1828 yili Boston ruhoniylari ichmaslikni rag'batlantirish jamiyatini tuzganlar. Oradan 7 yil o'tgach bu jamiyat Filadelfiyada umumdavlat yig'inini to'plagan va Amerikada ichmaslik ittifoqini tashkil etgan. Ittifoq alkagol ichimliklaridan voz kechishga da'vat etdi va shtat qonun chiqarish tarmoqlarini bunday mah-sulot ishlab chiqarish va sotishni man etishga undadi, bu boradagi qonunlar sud mahkamalarida ikkilanish tug'dirganiga qaramay 1855 yilga kelganda 13 ta shtat bu talablarni hayotga tadbiq etgan.

Bu qonunlar faqat yangi Angliyanig shimolida o'tkazilganligiga qaramay 1830 va 1860 yillar mobaynida ichmaslik harakati amerikaliklarning kishi boshiga alkagol ichimliklari ichish darajasini pasaytirgan.

Boshqa islohatchilar mahbuslar va ruhiy kasallarni boqish muommosini ko'targan. Jazoga urg'u bergan qamoqhonalarni ayibdorni tuzatishga qaratil-gan ahloqtuzatish kaloniyalariga aylantirish borasida harakatlar qilindi. Masa-chusetsda Deroteya Diks harob ahvoldagi g'aribhona va qamoqlarda saqla-nuvchi ruhiy kasallikka muftalo shaxslarning hayot sharoyitlarini yahshilash uchun kurash olib brogan, g'alaba qozongach u o'z say-harakatlarini janubga qaratgan va u yerda 1845 va 1852 yillar mabaynida to'qqizta shtat ruhiy kasallar uchun kasalhonalar ta'sis etgan.²⁵

Ijtimoiy islohotlar qamrovi ko'plab ayollarni jamiyatdagi o'zining tengsiz maqomini anglashga keltirdi. Urf-odatlarining ayollar erta turmush qurushini taqozo etganiga qaramay colonial paytlardan oq turmush qurmagan ayollar huddi erkaklar kabi ko'plab qonuniy hukumlardan bahramand edi. Turmush qurgach esa ayollar qonun nazdida o'zlarining hususiyatlarini sezilarli darajada yo'qotar edi. Ayollarga ovoz berish huquqi berilmagan edi. XVII-XVIII asrlarda ularning ta'lim olish imkonoyatlari faqat o'qish, yozish, raqs va kashta tikuv bilan chegaralangan edi.

1820 yili ayollar huquqlarini oshkora rag'batlantirgan Shotland voizi va journalist ayol Frenskis Raytning Amerikaga tashrifidan so'nag ayollarning uyg'onish davri boshlandi. Ijtimoiy joylarda ayollarning ko'pinchalik gapirishi ham man etilgan bir paytda Rayn faqat nutq so'zladi, balki ayollarning tugishi ustidan nazorat o'rnatish va ajralish borasida ma'lumotlar olish hu-quqlarini himoya qilib, o'z tinglovchilarini lol qoldirgan.

1840 yillarda ayollar huquqlari uchun kurashning harakatini shakillan-tirgan birinchi Amerika ayollarining guruhi yuzaga keldi. Ulardan biri Elizabet Kedi Stenton va Pukretsiya Mott Nyu-Yorkning Seneka Folz degan joyida ayollar huquqlarining dunyo tarixidan birinchi bo'lib Konventini tash-kil etishdi. Bu Konvent qatnashchilari qonun nqzdida erkaklar bilan bir hil teng ovoz berish huquqi, ta'lim-tarbiya va ishga yollanishda teng imkoniyat-lar talab etuvchi Deklaratsiya ishlab chiqishdi. Bundan tashqari shu yili Polshalik muhojir E.Royz vositasida Nyu-york shtatida turmush qurgan ayol-larga o'z mol-mulkini o'z nomida saqlanishini ruhsat etuvchi qonun chiqaril-di. Turmush qurgan ayollar mulki qonuni o'zga bir shtat qonun chiqaruvchi-larini shunga o'hshash qonunlarni tadbiq etishga undadi.

Chegara bo'yidagi ko'chkinchilarAmerika hayot tarzini shakillantirishga ko'p hissa qo'shganlar. Atlantika qkeani sohil bo'yi sharoitlari yangidan yangi mintaqalarga siljishni rag'batlantirdi. Katta hosil olishga imkon berma-gan yangi Angliya yerlaridan qit'aning

²⁵ Новая и новейшая история стран Европы и Америки (1870-1996 годы) М.: 1988 стр 112

ichkarisidagi serunum yerlar imtiyozi-dan foydalanish niyatida o'z sohil bo'yi fermerlari va qishloqlarini tark etgan odamlarning kuchli oqimi to'ldinlandi.

Mamlakat ichkarisidagi Koralina va Virjiniyaning rabotlarida sohil bo'yi bozorlariga eltuvchi yo'llar va kemalarning yetishmasligi va qirg'oq bo'yi plantatorlarining siyosiy hukmronligidan qiynalayotgan odamlar ham g'arb tamon siljidi. 1800 yilga kelib Missisipi va Ogayo daryo vodiylari ulkan bir chegara bo'yi mintaqasiga aylana boshlagan. "Hayyo olg'a ketarmiz, Ohayyo daryosi bo'ylab pastga suzarmiz" qo'shig'i minglab ko'ch-kinchi muojirlarning tilida edi.

XIX asrning boshida aholining g'arb tamon soljishi territoriyalarning bo'linishi va yangi chegaralar bo'ylab tizimlanishiga olib keltirdi. Yangi-yangi shtatlar qo'shilib borgani sayin Missisipi daryosidan sharq tamonda siyosiy harita sobitlasha boshladi. 1816 yildan to 1821 yilgacha oltita yangi shtat Indiyana, Illinays va Men (ozod jamiyatli shtatlar) ham (quldorlik jami-yatli shtatlar) Missisipi, Alabama va Missuri barpo etildi. Nomlanganlardan birinchi chegara bo'yi shtatlari Yevropaga yaqindan bog'liq edi, ikkinchilari esa sohil bo'yi turar joylariga biroq Missisipi vodiysi mustaqil edi. Aholisining nazari sharqdan ko'proq g'arb tamon qadalgan edi.

Chegara bo'yi ko'chkinchilarining tarkibi hilma hil edi. Bir ingliz sayyohi shunday ta'riflagan edi: "Xaroba kulbalarda kun kechiruvchi insonlar-ning dovyurak chiniqqan turi, ular detal, ammo mehmondo'st musofirlarga nisbatan xushfe'l, sofdil va ishonchga sazovor bo'ladi, ular ozgina makka-jo'huri, oshqovoq ekib va cho'chqa boqib, ba'zan bitta yoki ikkita sigiri ham bor bo'ladi."

Biroq ularning asosiy madadkori miltiqdir. Bolta, tuzoq va armoq ipi bilan kun kechirishning mohirona uddalagan mazkur odamlar o'rmonlarda yo'llar ochishgan, birinchi yog'och kulbalarni tiklashgan va o'zlari yerlarini tortib olgan asl amerikalik qabilalarga ro'baro' turishdi,

Tabora ko'proq ko'chkinchilar yovvoyi tabiat joylariga sinab o'tishi sayin ularning ko'pi fermerlar va ovchilarga aylanar edilar. Kulbalar o'rnini shisha oynali, kaminli va alohida honali qulay yog'och uylar egalladi, yangi hayot kurtak ortdi. Mehnatsevar ko'chkinchilar tez sur'atlari bilan o'z yerlarini eman daraxtlaridan tozaladi. Kaliy moddasi olish uchun daraxtlarni kuydirishdi va to'nkalarni chirib yotishga tashlab qo'yishdi. O'z bug'doylari va meva savzovotlarini o'stirishgan, bug'u, yovvoyi kurka va asal izlab o'rmon kezishgan, daryolarda baliq ovlashgan. Yer olib satrlari arzon yerlar-ning katta bo'laklarini olib qo'yib, qimmatiga sotishgan va yanadag'arb tamon siljib, boshqalarga yo'l ochishgan.

Fermerlar ortidan esa doktorlar, advakatlar, do'kondorlar, muxarrirlar, din voizlari, hunarmandlar va siyosatchilar ham yetib kelishgan, fermerlar mustahkam poydevor bo'lishgan. Ular o'zlari o'zlashtirgan joyda muhum bo'lishga intilishgan va o'zlaridan keyin farzandlari ham shu yerda turishga umid bog'lashgan. Ular katta omborlar va g'ishtli uylar, sinchli uylar qurish-gan, yerlarini mohirona o'zlashtirib serxosil urug'lardan foydalanishgan. Ba'zi-lari un tegirmonlari, taxta aralash ustaxonalari barpo etishgan. Yahshi sifatli tezyurar yo'llar qurishgan, cherkov va maktablar barpo etishgan. Natijada bir necha yil mobaynida hayritomuz o'zgarishlar ro'y bergan. 1830 yili Illinoys shtatining Chikago joyi hech bir istiqboli yo'q savdo qishlog'i edi. Biroq uning birinchi ko'chkinchilari olamdan o'tishdan ancha ilgariroq u davlatning eng katta va eng boy shaharlaridan biriga aylangan.

Fermalar sotib olish osongina bir ish edi. 1820 yillirdan keyin davlat qaramog'idagi yerlarning taqriban yarim gektarini 1 dollaru 25 sentga sotib olish mumkin bo'lganligi

ta'kidlanadi. 1862 yilning ko'chkinchi fermasi qonu-nidan keyin esa yerni egallash va o'zlashtirish tufayligina uni o'ziniki deb talab etish mumkin bo'lgan. Qo'shimcha ravishda yerlarda ishlash uchun asbob-uskunalarga erishish oson bo'lgan. Bu shunday bir paytlar ediki, Jon Soul tamonidan yozilgan va journalist Xarasi Griley tamonidan ommaviylashtirilgan bir iboraga binoan yoshlar g'arb tamon borishi va mamlakat bilan unib o'sishi mumkin edi.

Meksika ixtiyoridagi Texasga Hijrabni sanamaganda qishloq ho'jaligi bilan mashxur ko'chkinchilarning g'arb tamon siljishi 1840 yilgacha Missuri chegarasini kesib o'tmagan. 1819 yili Amerika fuqorolarining yer olish talab-nomalari bo'yicha to'plangan 5 million dollar evaziga Qo'shma shtatlar Ispaniyadan uzoq g'arbda joylashgan Oregon o'lkasiga ham Florida ham Ispaniyaning huquqlarini harid qildi. Shu paytga kelib Uzoq g'arb mo'yna savdosidagi misli ko'rilmagan faoliyat maydoniga aylanib, quruq terining o'zidan ancha uzoqqa boruvchi ahamiyatga molik bo'lishi muqarrar edi. Mis-sisipi vodiysining ortida ko'chkinchilar uchun yo'l ochuvchi vazifasini o'tagan.²⁶

Fransuz, shotland, irland ovchilari buyuk daryolar va ularning irmoq-larini o'rganib hamda Rokki va Semra tog'larining o'tish joylarini kashf etishib, 1840 yillada yerlar uzra siljish va davlatning ichkarisini ishg'ol etishga imkon yaratdilar.

Davlatning o'sishi beqiyos edi, aholi soni 1812 yili 7,25 milliondan 1852 yilga kelganda 23 milliondan ham oshgan, aholini yashashga yaroqli yerlar salkam Yevropa sathibarobariga oshgan, ya'ni 4,4 milliondan to 7,8 million kvadrat klometrgacha yetgan. Ammo mahalliy ihtiloflardan ildiz otgan asosiy nizolar hamon yechimini topolmagan muommo bo'lib, keyinchalik fuqorolar urushini kengaytirib chiqarishga sabab bo'ldi. Shu bilan birga g'arb tamon siljish jarayoni o'lkaning asl ahli ya'ni, hindular bilan ham nizo kel-tirishi muqarrar edi.

²⁶ Новая и новейшая история стран Европы и Америки (1870-1996 годы) М.: 1988 стр 120

Xulosa

Jon Medison dastlab birinchi marta Amerika qirg'oqlariga 1652 yil qadam qo'ygan. Virjiniya shtatida 600 akr yerga egalik qilib, o'z plantatsiya-sini boshqargan bu shaxs AQSHning to'rtinchi prezidentini otasi bo'lib, 1751 yil 16 martda Jeyms Medison tavallud topdi. Ularning oilasi Orenj grafligi-dagi eng yirik oilalardan biri edi.

Medisonlar o'z faoliyati davomida ingliz jentelmenlariga hos o'z mul-kini mustaxkamlash va ko'paytirish payida bo'lishgan. Medison o'z farzand-larini qanday bo'lmasin o'qishga va oily ma'lumot egallashiga diqqat bilan e'tibor bergan. Shuning uchun 11 yoshli Jeymsni qadimgi grek va Rim yo-zuvchilarining asarlarini mukammal darajada o'rgatadigan xususiy maktabga o'qishga bergan. Maktabni tugatganidan so'ng uncha katta bo'lmagan Atlan-tika okeani qirg'oqlaridan Nyu-Jersi mustamlakasidagi kollejga o'qishga kirib, antic davr va o'z davrining yetuk faylasuf, yurist va tarixchilarni faoliyatlari bilan tanishdi. Shu bilan birga davlat va xuquq fani uning eng sevimli fan-laridan biriga aylandi. Xattoki qiziqishi tufayli shunday o'qishga berildiki, kuniga faqat 3 saotgina dam oldi.

Bu holat uning salomatligiga qattiq ta'sir ko'rsatdi, ammo u o'z salo-matligi yuzasidan hech qachon vrajga murojat etmagan. 1772 yili parishon hotirligi tufayli Pristonni tark etib, Monpelega kelgan. Bu yerda u xudo va din haqidagi fikrlarida, anglikan cherkovlariga Virjiniya namunasidagi cher-kovni hamma shimoliy Amerika provensiyalarida bo'lishini ma'qullagan. "Qulchilik va bo'ysunishni" ma'qullagan.

Yozgan maqola va xatlarida esa mustamlakalardagi Angliyaga qarshi harakatlarga moyilligi yaqqol namoyon bo'lgan. Mustamlakalardagi vatanpar-varlik harakatida radikal qanotni egallab o'nlab yozgan pormfletlarida olib borilgan kurashning muvaffaqiyatlari to'g'risida qimmatli fikrlarni bergan. 1774 yil boshlarida "Ozodlik o'g'lonlari" jamiyatini quvvatlab, "Bostondagi choyho'rlik"ni ma'qullagan. Kuz oyida Filodelfiyada yig'ilgan I Kontinental Kongresda metropoliyani tavorlariga nisbatan baykot e'lon qilgan.

Shimoliy Amerika va Angliya o'rtasidagi qurolli to'qnashuvlarni natijasi Medisonni ko'proq tashvishlantirgan. Chunki kurashlarda qullarning ishtirok etishi ozod bo'lish ilinjida ekanligi aniq edi.

1775 yili aprel oyida qurolli askarlar va vatanparvarlar o'rtasidagi harbiy harakatlar boshlandi. Virjiniyada esa tezkorlik bilan havfsizlik milit-siya birlashmalari tashkil etishga kirishildi. Oktabr oyida 24 yoshli Jeyms Medison Orenj grafligidagi militsiya podpalkovniki lavozimini egalladi. Otish bo'yicha yuqori malakaga ega bo'lgan, xatto tirik mavjudod ham qochib qutula olmagan.

1775 yil aprelida Virjiniya gubernatori Lord Danmor Norfolk-Xempton rayonidan qochib, loyalist guruhlar bilan birga qo'shilib oladi. Mustamlakani boshqarish bo'yicha mahalliy vatanparvarlar Konyinental Kongresga murojat qilishganida, yangi hukumat tuzishni, Virjiniyalik vatanparvarlardan xoxish istagi bor shaxs boshqarsin degan ko'rsatma keldi. Tezkorlik bilan ta'sis Konventiga saylovlar belgilandi. Ikki deputatlik o'rniga Oranj grafligidan ikki nomzod Jeyms Medison va Taylorlar oilasi raqobatlashdi. Ular ikkalasi ham 1776 yil mayday ochiladigan Burgdagi ta'sis Konventidan o'z joylarini egallashdi.

Konvent o'z faoliyatini dastlabki kunlardanoq Shimoliy Amerikadagi sud va hokimyat masalasini muhokama qildi. Virjiniya mustamlakalar o'rta-sida vatanparvarlik harakatida yetakchi rol o'ynadi, uning aholisi esa 13 provensiya aholisini 4/1 qismini tashkil etgan. Bu kurashda ham aksariyat vatanparvarlar shu yerdan yetishib chiqishgan. 7

iyunda Virjiniyalik Kongres delegati R.G.Li “mustaqillik rezolyutsiyalari”ni ko’rib chiqishni taklif etdi. 4 iyulda esa boshqa yana Virjiniyalik T.Jefersonning mustaqillik deklaratsiyasi qabul qilindi.

Konvent o’zi esa Konsititutsiyani tuzishga kirishdi. Virjiniya Konventi ham Konsititutsiya loyihasini tayyorlash uchun 30 kishidan iborat komissiya tashkil etdi. Unga Medison ham kiritilgan edi. Bu esa Oranj grafligi dele-gatini katta sharafi hisoblanar edi. Ammo Virjiniya Konsititutsiyasi Meyson loyihasi asosida tuzilgan edi. 10 yil o’tganidan so’ng uning moddalari eskirib, kun tartibiga to’g’ri kelmay qolar edi, ya’ni qonuniyatni bo’lish, gubernator hokimiyatini cheklash, hokimyat tizimlarida boshqaruv bo’limlarini bir-birini inkor etuvchi holatlarning namoyon bo’lishi, kuchli demokratik ko’tarilish jarayonida qiyinchiliklarni keltirib chiqarar edi.

Medisonning siyosiy faoliyatini boshlanishi keng qamrovli hisoblanib, dastlab u birinchi shtat ijroiya sovetiga a’zo etib saylangan, muddati tugaganidan so’ng qayta saylangan. Bu shtatlardagi yuqori oily lavozim hi-soblanib, Medisonnig faoliyatida alohida o’rin egallaydi. 1779 yil Virjiniya-ning vakili sifatida Kontinental Kongresga saylandi. U Filodelfiyaga kelganida Kontinental Kongres o’z faoliyatini boshlagan edi, Medison, bu jarayonda qanday bo’lmasin o’z shtatini qiziqishlarini himoya qilgan “Mening vatanim Virjiniya” formulasi asosida ish faoliyatini tashkil qildi.

1777 yili Medison Kontinental Kongresda ishtirok etib, umumiy Amerika ittifoqi haqidagi “Konfederatsiya nomi” maqolasida o’z loyihasini ma’ruza qildi, unda shtatlarning hokimiyati suveriniteti iqtisodiy va siyosiy sohadagi xayotning muhum tamonlari haqida alohida to’xtaldi. Uning bu loyihasi vatanparvarlarni qoniqtirgan ammo ba’zi masalalar yuzasidan jiddiy munozaralarga sabab bo’ldi, ya’ni g’arbdagi hindular istiqomat qiladigan joy-larni egallash bo’yicha.

1781 yili Medison o’zidagi manbalarga asoslangan holda, moliya siyo-satiga diqqatini qaratdi. Pensilvaniyalik banker P.Morris boshchiligidagi moliya boshqarmasini tashkil etdi. U butun urush davomida Kongresning iq-tisodiy masaladagi moliya ishlari bilan shug’ullandi. Morris iqtisodiy siyosa-tini amalgam oshirish jarayoni davomida keng ta’lim dasturini ilgari surib, bajarilishi mobaynida o’zi uchun zarur bo’lgan yakka hukmronlik mavqeilarni berilishini talab etdi. Birinchi navbatda 5 foiz bojxona to’lovini kiritishni Kongres oldiga qo’ydi. Davlat xazinasini to’ldirishda Konfederatsiya maqola-sida ilgari surilgan dasturga binoan shtatlardan ixtiyoriy ravishda yig’imlar yig’ish, bu bu amalgam oshmagan taqtirda chet davlatlarning ko’p miqdor-dagi zayomlardan foydalanish, uning ma’lum qismini armiyaga sariflanishini takidladi.

Uning bu tadbirini president Medison qo’llab quvvatladi. Chunki hukumatning moliyaviy jihatdan yetishmovchiligidan qutqarishning yagona yo’li edi. Shunga asosan Mppris mamlakatda valyuta, kredit operatsiyalarini tartibga solish uchun milliy valyuta tashkil etishni ilgari surdi. Medison va boshqa janubliklar bu tadbirlarni qonuniy ekanligini ta’kidlashdi. Medison uzoq maslahatlashganidan so’ng Morris bilan fikrlashib bu tadbirni Pensil-vaniya legistraturasi qoshida tashkil etishga kelishdilar. Bu bilan janubliklar-ning qo’llab-quvvatlashga erishdi. Ammo Morris janubliklarning kuchli qar-shiligiga duchor bo’ldi.

Shunday holatda Kongres bank tashkil etish haqida qaror loyihasini kiritdi, Medison bu tadbirni amalgam oshirishda Morrisning g’oyalaridan foydalandi.

Medison AQSHda demokratik hukumatning murakkab shakillarini asos-lab berdi, shtatlardagi qonun chiqaruvchi hukumat va senatning rolini ko’r-satib berdi. Ijroiya hokimyatning mustahkamlash zarurligini ilgari surib, A.Gamilton, J.Dikinson, G.Morris va

boshqalar tamonidan ilgari surilgan 7 yillik muddatga president saylash loyihasini faqat Medison quvvatlamagan. Keyinchalik Konvent ham 4 yil muddatni tasdiqlagan.

Medison AQSH Konsititutsiyasining yagona mualliflaridan biri hisob-lanadi. Shuning uchun u AQSH tarixida “Amerika Konsititutsiyasining faylasufi” deb nomlangan.

1794 yili Medison Dolli Peyn bilan turmush qurishgan. Bu nikox mu-vaffaqiyatli bo'lgan. Ammo 1798 yildan so'ng uning osoyishta hayoti tugadi, chunki Federalistlar Kongresga Fransiya bilan hamkorlikka qarshi qonun loyi-halarini taqdim etishdi. Medison aktiv siyosiy faoliyat bilanshug'ullanishga majbur bo'lgan, ikki yildan so'ng esa prezidentlik saylovlarida respublikachi-lar g'alaba qozondi, u esa davlat departamentini raxbarligi lavozimini egal-ladi. 1802 yil Federalistlar hukumati 1778 yilgi shartnomani bekor qilib, Fransiya bilan savdo aloqalarni to'htatishni e'lon qildi, natijada Yevropa dav-latlari bilan tushunmovchiliklarga sabab bo'ldi. Bu mojoro diplomatic muno-sabatlarda hal etildi. 1808 yili Medison mamlakat prezidenti etib saylandi. (1812 yili esa qaytadan saylangan.)

Uning olddida turgan muommolardan biri tashqi siyosat masalasi edi. Chunki bu sohani yaxshi tushungan holda Jeffersondan tashqi siyosat masala-sini o'zi qabul qilgan. Angliyaga qarshi urish olib borgan 1812-1815 yillar-dagi AQSH-Angliya urishi “Janob Medison urushi” deb nomlangan.

Medison prezidentlik lavozimini egallab, o'z vazifasini bajarishga kiri-shiboq, Yevropa davlatlari bilan savdo aloqalarni rad qilgan, bu juda ko'p savdogarlarda norozilik kayfiyatini uyg'otgan. 1810 yilda qabul qilingan qo-nunga ko'ra, AQSh hamma davlatlar bilan savdo aloqalari uchun ochiq, ammo tetakchi davlatlar uning dengiz huquqlariga zarar yetkazmagan holda, deb ta'kidlagan.

Bundan Fransiya hukumati, o'z foydasiga foydalanishga urundi. Buni Medison habar topganidan so'ng, Napaleon hukumati AQSH prezidenti va Amerika savdosi munosabatlariga daxldor barcha ta'qiqlarni bekor qildi. 1811 yil boshlaridan diplomatic aloqalar va iqtisodiy munosabatlar Angliya bilan to'xtatildi. Bu voqeadan so'ng Angliya AQSH munosabatlari yanada keskin-lashdi.

XIX asr boshlarida AQSH hukmron doiralari ekspansionistik g'oyalar bilan qurollangan edilar. 1811-1812 yillarda ekspansionistlarning yetakchilari Medisondan Angliyaga qarshi urish e'lon qilishni talab etishdi. Hatta XIX asr AQSH tarixshunosligida Medisonga nisbatan pacifist sifatida qaralib, Angliyaga qarshi urish va ekspansionistik rejalarining dushmani sifatida gav-dalantirilgan. Ammo u ekspansioniyani qo'llab-quvvatlab, plantorlarning qiziqish va manfaatlarini inobatga olgan holda ish ko'rgan.

Ammo 1812 yilgi urush harakatlarini AQSH tarixchilari qoniqarsiz asosda baholashgan. AQSHning harbiy harakatlari 1812 yilda T.Jeffersonning Kanada qachonki Amerikaliklar unga kirib kelganidagina yakunlanadi, deb qilgan bashoratidan so'ng boshlandi. Amerikaliklar bir necha bor urinishdi. 1813 yil va 1814 yil boshlarida Kanada frontining janubiy-g'arbida hindu qa-bilalari ustidan o'tkazilgan operatsiya omadli bo'ldi, lekin 1814 yil oxirlarida Angliya AQSHning markazi, shimoli va janubiga 3 ta kuchli harbiy desand tashladi. Inglizlar dengiz yo'llarini nazorat ostiga olgan edilar.

Endi Amerikaliklar 1914 yil 8 avgustda Gentada bo'ladigan tinchlik muzokaralaridan umid qilgan edi. 24 dekabrga qadar davom etgan tinchlik shartnomasi AQSHga uning oldingi holatini qaytarib berdi. AQSHning urish-ning boshlaridagi har qanday harbiy

maqsadlari amalgam oshmagan. Lekin AQSH o'zining avvalgi chegaralari saqlanib qolganidan xursand edi.

Shimoliy-sharqiy shtatlardagi burjua doiralari avval boshdanoq Angliya-ga qarshi urushdan norozi edilar. Chunki Angliya ularning asosiy savdo hamkori edi. Federalistlar arboblardan biri D.Uebeter prezidentni Napoleonni ko'rsatmasi bilan harakat qilganlikda ayibladi. Kongresga kelgan xatlarda Medisonning siyosiy hamfikrlari Massachusets va Konnektichest gubernator-laridan doimiy holatda shikoyat qilingan. Oxir oqibat president Medisonga AQShning muvaffaqiyatsizliklariga sabab shimolliklarning antivatanparvarlik harakatlari deb, tushinish imkoniyatini berdi.

Angliya bilan yrish davomida mamlakat ichki hayotida juda ham keskin vaziyat vujudga kelgan bo'lib, Medison shimol va janub o'rtasida to'qnashuv xavfini yuzaga keltirgan birinchi president edi.

Britaniya va AQSH ma'muriyati tamonidan bitim yuzasidan muzokara-lar olib borilayotgan bir paytda Massachusets, Rod-Aylend, Konnektikut, Vermont va Nyu-Gempshir shtatlarining qonun chiqarish tarmoqlari tamonidan saylangan federalist vakillari Konnektikutning Xartfordida janob Medison urishga qarshi muxolifatning ramzi bo'lgan majlisga to'planishgan.

Nizoga qaramay Yangi Angliya dushman bilan savdo-sotiq olib borish-ga undamagan edi, ayrim sohalar bu tijoratdan katta foyda olib, gullab yashnar edi. Ammo urish mamlakatni iqtisodini vayron etib, izdan chiqardi deb, ta'kidlardi federalistlar. Ichki siyosiy raqobat natajasida esa ayrim Konventning ba'zi vakillari ittifoqdan chiqib ketish istagini ham namoyon etdilar. Biroq ko'pchilik respublikachilarning ta'siri chegaralash uchun qator, shu jumladan 60 kundan ko'proq davom etuvchi embargolarni man etuvchi va yangi president oldingi president bilan bir shtatda bo'lishni taqiqllovchi konsititutsion qo'shimchalar kiritishga rozi bo'lgan. Xartford Konventining elchilari VAshingtonga yetib kelganida urish tugab bo'lgan edi. Xartford Konventi federalistlarni layoqatsizlik tamg'asi bilan muxrlagan va ular bu dashnomdan anchagacha qutila olmadilar.

AQSH ma'muriyati faoliyati tarixi davomida mamlakat tarixida chuqur iz qoldirgan federalistlar va antifederalislar o'rtasidagi kurash alohida o'rin egallaydi. Federalistlar asosan iqtisodiy hayotda dengiz portlarining shahar savdo-sotiq manfaatlarini ifoda etgan, Antifederalistlar esa qishloq ho'jaligini rivojlantirib, janubiy hududlar nomidan faoliyat ko'rsatganlar.

Federalistlar tijorat va sanoat manfaatlari yo'lida ish yurituvchi kuchli markaziy hokimyat barpo etishga uringanlar, ijtimoiy hayotga samaradorlik, tartib intizom va tashkilotchilik maylini namoyon etgan, xalq ishonchini mu-tonosib madadi borasida vakillar palatasi da'vat etgan rejaga javoban u faqat davlat iqtisodi tamoyillarini emas balki samarali hukumatni ham ro'yobga chiqarishni targ'ib etgan. Sanoat rivoji tijoriy faoliyat va hukumat hatti-harakatlariga AQSh xalqini ishonishi handa bu masalalar xalqning to'liq ishonishi va uning madadiga erishmog'i lozimligini ta'kidladi.

Antifederalistlar esa markazlashirilmagan agrar respublikani yoqlab chiqishgan horijiy davlatlar bilan aloqalarda kuchli markaziy hukumatning ahamiyatini tan olganlar, ammo o'zga sohalarni kuchli bo'lishini istashmagan.

1800 yillarga kelganda AQSH xalqi ichki hayotda o'zgarishlar o'tka-zishga tayyor edi. Chunki Federalistlar kuchli hokimyat barpo etib, biroq ba'zan Amerika hukumati xalq irodasiga aks sado brishi zarur ekanligi tamo-yiliga berilib katta guruxlarni o'zlaridan turtib tashlagan siyosiy yo'nalishlarni quvvatlashgan. Shu yillardagi saylovlarda

muvaffaqiyatlarga erishgan antifederalistlar mamlakat aholisi orasida tartibni saqlash yo'lida oqil va te-jamkor hukumat barpo etishga, shu bilan birga sanoat ishchilari bilan shu-g'ullanish va ularni yaxshilash borasida erkinliklarni o'zlariga qoldirishga va'da bergan.

Angliya va AQSH urishi mustaqillik uchun olib borilgan ikkinchi urish bo'lib, undan ilgari Qo'shma shtatlarga davlatlar qatoridan teng maqom berilmagan edi. Bu urish yakunlanganidan keyin esa, inqilob davridan beri yosh Respublika boshidan kechirayotgan jiddiy qiyinchiliklarning ko'pi ortda qoldi. Konsititutsiya panohida vujudga kelgan davlat ittifoqi ozodlik va tartib borasida muvozanatni vujudga keltirdi. Past davlat qarzi va kashf etishga muntazir qit'a orqali davlat tinchlik va farovonlik istiqboli hamda ijtimoiy taraqqiyot tamon yo'l ochdi.

Tijorat davlat birligini mustahkamlab urish davri qiyinchiliklari, Amerika ishlab chiqaruvchilari horijiy raqobatga dosh bera oladigan darajada taraqqiy etib, o'zlari oyoqqa turib olmagunlaricha ularni himoyalashning ahamiyatini yaqqol namoyon etdi. Foydasiga ko'p dalillar ketirgan iqtisodiy mustaqillik ham huddi siyosiy mustaqillik bilan bir xilda juda muhim jarayon edi.

O'z-o'zini qondirish jarayonini tezlashtirish niyatida Kongresning rah-barari Kemtukkilik Xenri Kley va janubiy Koralinalik Jon.S.Kalxaun protek-sionizm ya'ni Amerika sanoatining rivojlanishini tezlashtirish maqsadida import qilinuvchi mol va mahsulotlarga nisbatan cheklashlar kirish siyosatini quvvatlagan.

Mamlakat ichki hayotida qullik masalasi katta muommolardan biri hisoblangan. 1787 yili shimoliy-g'arbiy Ordonansi, qullikni shimoliy-g'arbiy mintaqada man etgan. 1808 yili xalqaro miqyosida qullik oldi-sottisi bilan savdo qilish man etilishiga qaramay, janubda hanz mavjud edi. Chunki 1790 yillardan keyin avvalgi vaziyatlarga ancha ko'proq daromad keltiruvchi sohaga aylangan edi.

Janubdagi paxta yetishtirish sanoatning ulkan rivoji mazkur iqtisodiy yangiliklardan eng asosiysi bo'lib, paxtaning yangi navlarini tadbiiq etish va 1793 yil Eli Uitni ixtiro etgan paxta tozalash uskunasi tamonidan rag'bat-lantirilgan. Ayni paytda to'qimachilik sanoatini keng qamrovli faoliyat soha-siga aylantirgan sanoatlashtirish inqilobi ham paxtaga bo'lgan talabni keskin ravishda oshirgan. 1812 yildan g'arbdagi yangi yerlarni o'zlashtirilishi paxta yetishtirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan yerlarni sezilarli darajada ken-gaytirgan. Paxta yetishtirish madaniyati sharqdagi sohil bo'yi yerlaridan quyi janub tamon orqali tez sur'atlar bilan Missisipi deltasining mintaqasi hatto Texas tamon siljigan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov. I.A “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” Toshkent “O’zbekiston” 1997 yil
2. Karimov. I.A “Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q” Toshkent “O’zbekiston” 1998 yil
3. Karimov. I.A “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” Toshkent “Ma’naviyat” 2008
4. Адо Г.Л Новая история стран Европы и Америки Москва 1986 год
5. Война за независимость и образование США. Москва 1976 год
6. Дементьев .И.П Идеиная борьба в США по вопросам экспансии. Москва 1973 год
7. Зословский Д.О Очерки истории Северо Американских Соединенных штатов XVIII-XIX веках Москва 1931 год
8. Иванов Ю.Ф Практикум по новой истории (1640-1870) Москва 1973 год
9. Манфред А.З Наполеон Бонапарт. Москва. Мысл 1986 год
10. Новая и новейшая история стран Европы и Америки (1870-1986) Москва 1988 год
11. Паринггтон В.Л Основные течения американской мысли. В 3-томах Москва 1962-1963 год
12. Согрин В.В Основатели США . Исторические портреты. Москва 1983 год
13. Согрин В.В Идеиные тегения в Американской революции XVIII века Москва 1980 год
14. Фурсенко .А.А Американская революция и образование США. Ленинград 1978 год